

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

INGLIZ TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Jo'rayeva Muqaddas Ikromjomnovnaning

**TARJIMADA MUALLIF USLUBINING
BERILISH MUAMMOLARI (A. S. PUSHKIN,
N. A. NEKRASOV, L. N. TOLSTOY
ASARLARI MISOLIDA)**

MAVZUIDAGI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

f.f.n.dots, R. Karimov

Namangan – 2011

MUNDARIJA

KIRISH.....	2
I-BOB. TOR VA KENG MA`NODAGI USLUBDAN FOYDALANISH.....	8
1.1 Tor va keng ma`nodagi uslub haqida ma`lumot.....	8
1.2 O`zbekistonda tarjimonlarning tarjima uslubini berilishi hususida.....	14
Birinchi bo`yicha hulosalar	21
II-BOB. N. A. NEKRASOV ASARLARI TARJIMASI VA TARJIMADAGI USLUBIY MUAMMOLARI.....	22
2.1 Zulfiya - Nekrasov tarjimoni.....	22
2.2 N. A. Nekrasov asarlarini o`zbek tilidagi tarjimalari bilan qiyoslab o`rganish.....	36
Ikkinchi bob bo`yicha xulosalar	60
III-BOB. A. S. PUSHKIN VA L. N. TOLSTOY ASARLARI TARJIMALARINING USLUBLARI VA TARIHI.....	61
3.1 A. S. Pushkin asarlari tarjimasida muallif uslubining aks ettirilishi.....	61
3.2. L. N. Tolstoy asarlari tarjimalarining tarixiga doir.....	75
3.3 L. N. Tolstoy asarlarini o`zbek tilidagi tarjimalari bilan qiyoslab o`rganish....	85
Uchinchi bob bo`yicha xulosalar	90
UMUIMIY XULOSALAR.....	91
SUMMARY.....	96
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	99

KIRISH. TADQIQOTNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Ma`lumki, O`zbekistonimizning mustaqil davlatga aylanishi natijasida vatanimiz dunyoga yuz tutdi. Xorijiy

mamlakatlar bilan savdo, iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yo`lga qo`yildi. Diplomatik aloqalar ham o`rnatildi, qadriyatlarimiz tiklandi va tiklanmoqda, jahon integratsiyasi jarayonlarida faol qatnashayapmiz. Buning natijasida yurtimizda xorijiy tillarga ayniqsa ingliz tiliga bo`lgan qiziqish mislsiz oshdi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni Samarqand viloyatidagi 2010 yil 12 dekabrda so`zlagan nutqida Oliy va o`rta maxsus talim vazirligi oliygohlarida faoliyat ko`rsatayotgan hoh u talaba bo`lsin hoh professor-uqituvchi bo`lsin u komp`pyuter texnologiyasini bilishi, internetda erkin ishlay olishi va ingliz tilini bilishi lozimligini alohida o`qtirib o`tdilar.

Bundan tashqari xurmatli prezidentimiz Islom Abdug`anievich Karimovning 2011 yil 21 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi so`zlagan ma`ruzasida qo`yidagilarni ta`kidlaydilar.

“Ayni paytda biz o`z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to`g`ri ekanini va amalda o`zini to`la oqlaganini hayotning o`zi yana va yana tasdiqlab bermoqda”¹.

Ushbu modelning tamoyillari asosida mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo`yicha har tomonlama va chuqur o`ylangan tadrijiy taraqqiyot dasturini izchil amalga oshirganimiz inqirozning, jahon bozoridagi keskin o`zgarish va beqarorlikning iqtisodiyotimizga, moliya va bank tizimiga salbiy ta`sirini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

Biz bugun 2010 yil yakunlarini baholar ekanmiz, avvalo, mamlakatimiz iqtisodiyotining yuqori barqaror o`sish sur`atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi - saqlanib qolayotganini qayd etishimiz zarur. SHuni yana bir bor eslatib o`tmoqchimanki, yurtimizda yalpi ichki mahsulotning o`sish sur`atlari 2008 yilda 9 foiz, 2009 yilda 8,1 foiz, 2010 yilda esa 8,5 foizni tashkil etdi. Jahon moliya institutlarining xulosasiga ko`ra, bu dunyodagi eng yuqori ko`rsatkichlardan biri ekani, albatta, barchamizga mamnuniyat bag`ishlaydi.

Keyingi o`n yilda, ya`ni 2000 yilga nisbatan taqqoslaganda, 2010 yilda

1. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2010

mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qariyb 2 barobar, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 1,7 barobar oshdi.

Aholining internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati kengayib - borayotganini albatta ijobiy baholash lozim. 2010 yilda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 1,4 barobar ko'paydi va 6,6 million kishidan oshdi.

Ayni vaqtda internet xizmatini ko'rsatish tariflarini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobidan undan foydalanuvchilar uchun sharoitlar tobora yaxshilanmoqda. Xususan, 2010 yilda bu boradagi tariflar 20 foizga pasaytirilganini alohida qayd etish kerak².

1 ming 500 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey barpo etildi va - rekonstruktsiya qilindi. Faqat 2010 yilda maktablar, kasb-hunar kollejlari va litseylarda 2 ming 300 tadan ziyod komp'yuter texnikasi va mul'timedia uskunasi o'rnatildi.

Unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni jismoniy jihatdan tarbiyalash va bolalar sportini rivojlantirishga qaratilgan dasturni amalga oshirish bo'yicha ishlar izchil davom ettirildi. Buning natijasida faqat 2010 yilning o'zida 72 ta sport inshooti, 27 ta suzish havzasi foydalanishga topshirildi, umumiy qiymati 3 million AQSH dollariga teng bo'lgan sport inventarlari va uskunalar joylarga etkazib berildi.

O'tgan yilda farzandlarimizning ijodiy qobiliyati va ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qabul qilingan dasturni amalga oshirish boshlandi. Agar 2009 yilda oltita musiqa va san'at maktabi qurilgan va rekonstruktsiya qilingan bo'lsa, hisobot yilida 46 ta ana shunday maktab foydalanishga topshirildi. Ularning qurilishiga 51 milliard so'mdan ortiq kapital mablag' yo'naltiri

Aholi daromadi va farovonligini oshirish borasida ham sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar yuz bermoqda. Aholining ish haqi va umuman, pul daromadlari barqaror oshib bormoqda, uning xarid qobiliyati muttasil o'smoqda, fuqarolarimiz iste'mol qiladigan mahsulotlar tarkibining sifati ortmoqda.

2. Karimov I.A. "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom - taraqqiyotimizning muhim omilidir", "Ishonch" gazetasi, 2010 yil 8 dekabr"

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi.

Joriy yilning oxiriga qadar, idoraviy mansubligidan qat`i nazar, barcha yirik korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarida jahon tajribasida sinovdan o`tg`an zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi lozim bo`lgan uskuna va texnologiyalarning ro`yxatini aniqlash uchun texnik audit o`tkazish zarur. Vazirlar Mahkamasiga ushbu dasturlar bajarilishini nazoratga olish vazifasi topshiriladi. Bunda yangi loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishini nazarda tutish darkor.

Bu muhim ustuvor vazifani izchil amalga oshirish uchun 2015 yilgacha bo`lgan davrga mo`ljallangan maxsus dastur ishlab chiqilgan bo`lib, u iqtisodiyot tarmoqlari va mamlakatimiz hududlarini istiqbolli rivojlantirish bo`yicha amalga oshirilayotgan dastur bilan uzviy bog`liqdir³.

Ko`zda tutilgan ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobidan - internetning xalqaro tarmoqlariga chiqish imkoniyatlari tezligini 4 barobar oshirish, turg`un statsionar aloqa orqali internetdan foydalanuvchilar sonini 3 milliondan 3,5 million nafarga ko`paytirish, keng formatli telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanuvchilar sonini esa ikki barobar oshirib, 100 mingtaga etkazish lozim.

2011 yilning birinchi yarmida O`zbekiston Milliy teleradio-kompaniyasining mediamarkazini Yaponiya va Germaniyaning etakchi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan eng zamonaviy mul`timedia texnikasi bilan jihozlab, foydalanishga topshirishni ta`minlash zarur.

Hozirgi kunda 2011-2015 yillarda Oliy o`quv yurtlarini rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda va ushbu hujjat yaqin vaqt ichida qabul qilinadi. Dasturdan ko`zlangan asosiy maqsad — oliy ta`lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o`quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar -

3. ³ Karimov I.A. "Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi", "Xalq so`zi" gazetasi, 2011 yil 22 yanvar"

bilan jihozlash, pirovardida o`quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tatbiq etishdan iboratdir.

SHuni tan olish kerakki, har qanday kichik korxonalar ham o`z mahsulotlari bilan tashqi bozorga mustaqil ravishda chiqa olmaydi. Chunki buning uchun katta sarf-xarajatlar kerak bo`ladi, xorijiy mamlakatlar bozorining holati va qonunchiligining o`ziga xos xususiyatlari haqida etarlicha axborot va bilimlarga ega bo`lish talab etiladi”.

Darxaqiqat shundan kelib chiqib shuni aytish kerakki xorijiy investitsiyalarni jalbetish, yangi axborot tizimlaridan va zamonaviy texnikalardan foydalana olish va internetda erkin ishlash uchun chet tilini ayniqsa ingliz tilini bilish davr talabi ekanini bilib turibmiz. Demak axborot texnologiyalari va ingliz tilini bilish xar bir ziyoli odamdan talab qilinadigan muhim omillardir

SHu sababdan bugungi kunda mamlakatimiz uchun oliy o`quv yurtlarida professor-o`qituvchilarni va talabalarni ingliz tili va kompyuter sovdxonligini oshirish maqsadida turli kurslar tashkil etildi. Bularning hammasi qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida olib borilmoqda. O`zbek tarjimashunoslik fanining tug`ilishi, o`z rivojlanishi, dunyo tarjimashunoslik fani va uning tarixi bilan chambarchas bog`langan.

Tarjima nazariyasi va amaliyoti ustida jiddiy ilmiy ishlar olib borilmoqda. O`zbekistonda E. Aznaurova, N. Vladimirova, M. Rasuliy, Yu. Pulatov, A. Xojiaxmedov, G` R. Salomov, G. Rofurova, N. Komilov kabilarni ishlari bizni bexad quvontiradi. Tarjimashunos N. Vladimirova tarjima sohasida jiddiy ishlarni amalga oshirdi. U o`zbek tilining nozik tomonlarini yaxshi egallagan va bir qancha asarlarni tarjima etgan mohir tarjimon hamdir. U ruschadan o`zbekchaga va aksincha, o`zbekchadan ruschaga qilingan tarjimalarning sifati haqida to`g`ri va aniq fikrlar yuritadi. Originalning obrazi, milliy koloriti va stilni o`zbek tilida qayta tiklash nihoyatda qiyin masala, bo`larni o`rganishda prof. N. Vladimirovani xizmatlari beqiyos. Ayniqsa tarjimada muallif uslubining berilishi juda murakkab

va kam o`rganilgan soha, hattoki rus tilida ham materiallar etarli emas deyish mumkin. Hattoki tarjima nazariyasiga oid ko`plab risolalar yozgan prof. A. Fedorov ham tarjimada til masalalari haqida ko`plab ma`lumotlar bersada uslub-masalasini chetlab o`tgan. «Uslub-bu talant, tafakkurning o`zi demakdir, uslub-bu fikrning bo`rtib chiqishi va yaqqol sezilishidir. Uslubda odamning butunlay o`zi ko`rinadi, uslub hamma vaqt shaxs kabi, harakter kabi originaldir. Shuning uchun har bir ular yozuvchining o`z uslubi bo`ladi. Ishda uslubning tor va keng ma`nolariga to`xtalib o`tdiq tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima etar ekan, uning uslubini-stilini berishi lozim degan xulosaga keldik Bu adabiy tarjimaning asosii qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa original asarning stilini bera bilishidadir.

Agar tarjimon o`sha yozuvchining stilini bermasa, u vaqtda tarjima bo`sh chiqadi va nursiz rangsiz, qonsiz, chala jonday bo`lib ko`rinadi. Eng mohir tarjimonlarning asarlari shuning uchun ham o`lmas asarlar bo`lib qoladiki, ular original asar avtorining ruhi va uslubini bera oladilar. Bu og`ir vazifani bajarish uchun tarjimon har turli yo`llarni axtaradi, o`z qalamini charxlab, o`tkirlyadi, natijada mashxur tarjimonga aylanadi. Asl nusxaning uslubini bera olgan badiiy tarjimagina, **aniq tarjima** bo`la oladi.

TADQIQOTNING ILMIIY YANGILIGI

Muallif uslubini yaxshi bergan nodir tarjimalardan biri N. A. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» asarining tarjimasidir. Mazkur asarni Mirtemir katta zavq jo`shqin ilxom bilan muvaffaqiyatli tarjima etgan. Zulfiyaning tarjimasini zargarning ishiga qiyos qilsa bo`ladi, u zarning qadriga etgan zargarday qunt bilan ishlab, so`zning dur -javoxirlarini tejab joy-joyiga qo`yadi va chiroyli san`at obidasini Yuzaga chiqaradi.

tarjima asl nusxaga mos;

obrazlar mohirona ochilgan;

bu tarjimalar rus va O`zbek adabiy alokalarini rivojlantirishda va o`zaro do`st likni yanada mustaxkamlashda katta hissa qo`shadi.

TADQIQOTNING METODOLOGIK VA NAZARIY ASOSLARINI

I.A.Karimovning asarlari, nutqlari, xorijiy tillarga qilingan tarjimalari, O`zbekiston Respublikasining milliy istiqlol g'oyasi, shuningdek o`zbek, rus, ingliz va boshqa xalqlar adabiyotshunos, sharqshunos, tarjimashunoslarining adabiyot nazariyasi, tarjima asoslari, qiyosiy adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlari ishning nazariy-uslubiy asosi bo`lib xizmat qildi.

Ishda qiyosiy taxlil usuli tanlandi.

TADQIQOT ASOSIY MAZMUNINING OMMALASHTIRILISHI, olingan natijalar Yuzasidan Namangan Davlat Universitetida bo`lib o`tgan ilmiy anjumanlarda, filologiy fakul'tetining bir qator seminarlarida ma`ruza va axborotlar bilan chiqilgan.

I-BOB. TOR VA KENG MA`NODAGI USLUBDAN FOYDALANISH

1.1 Tor va keng ma`nodagi uslub haqida ma'lumot.

Uslub-stil masalasi juda murakkab va kam o`rganilgan soha bo`lib, bu xaqda O`zbek tilida biror monografiya yoki risola nashr etilgan emas. Hatto rus tilida ham stilistikaga doir materiallar kam deb aytish mumkin. Masalan, akademik V. V. Vinogradovning **«Masala avtorstva i teoriya stiley» («Mualliflik masalasi va uslub nazariyasi»)**, **«Uslub i sYujet» («Uslub va sYujet»)** degan kitoblari, prof. A. N. Gvozdevning **«Ocherki po stilistike russkogo yazika» («Rus tili stilistikasidan ocherklar»)** monografiyasi, prof. B. V. Tomashevskiyning **«Yazik i uslub» («Til va uslub»)** degan asarlaridan boshqa kitoblarni uchratganimizcha yo`q ammo ushbu asarlarda ham bevosita tarjimadagi uslub masalalari ustida to`xtamaganlar.

Tarjima nazariyasiga doir ko`p kitoblar yozgan Atoqli tarjimashunos prof. A. V. Fedorov badiiy tarjimada til masalalari va uning hususiyatlari haqida qimmatli fikrlarni ilgari so`rgani xolda negadir uslub masalasini yoritmaydi. A. V. Fedorov o`zining **«Vvedenie v teoriyu perevoda» («Tarjima nazariyasiga kirish»)** degan kitobining oltinchi bobida **«So`z o`yinlarida stilistika hususiyati»** haqida ozgina ma`lumot berib o`tadi, xolos. Manna bo`lardan ko`rinib turibdiki, tarjimada uslub masalasi hozirga qadar hal etilmagan va o`rganilmagan muammodir.

Umuman, uslub masalasining murakkabligi haqida akademik V. V. Vinogradov to`g`ri fikrni aytdi: **«San`atshunoslik adabiyotshunoslik va tilshunoslikda uslub termini, uslub tushunchasi kabi va juda ko`p ma`noli, bir-biriga karama-karshi, hali o`ziga mos ta`rifga ega bulmagan, chigal, sub`ektiv-noaniq bir termin yoki tushunchani topa olmaymiz. Shuning bilan birga, hech bir san`at nazariyasi stilsiz yashay olmaydi, uni chetlab utolmaydi. ...Uslub kategoriyasi ko`pincha ilmiy-tarixiy nazariyaning muhim asoslaridan biri hisoblanadi»⁴.**

Stilistika o`zi alohida bir fan bo`lib, uni ba`zi bir olimlar «tilshunoslik ilmining bir qismi» deyдилar (masalan, V. V. Vinogradov), ba`zilar esa «yo`q uslub adabiyotshunoslikning bir bo`lagi» (L.I. Timofeev) deyдилar.

⁴ В. В. Виноградов, Проблема авторства и теория стилей, М., ГИХЛ. 1961. стр. 7.

Stilistikaning qaysi fanga kirishidan qat'iy nazar, bu masalani jiddiy o'rganish kerak stilistika, bizning fikrimizcha, umumfilologiyaning bir bo'lagidir.

Uslub haqida buyuk munaqqid V.G. Belinskiy shunday degan edi: **«Uslub-bu talant, tafakkurning o'zi demakdir, uslub-bu fikrning bo'rtib chiqishi va yaqqol sezilishidir. Uslubda odamning o'zi butunlay ko'rinadi, uslub hamma vaqt shaxs kabi, harakter kabi originaldir. Shuning uchun har bir ulug' yozuvchining o'z uslubi bo'ladi»⁵.**

Darhaqiqat, har bir ulug' yozuvchi va shoirning o'ziga yarasha uslubi-stili borligini kuhna tarix bizga aytib beradi. Biz klassik adabiyotni o'rganar ekanmiz, ulug' siymolar Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Navoiy, Shota Rustaveli, PUSHKIN, Tolstoy, Chexovlarning o'ziga xos stili-uslubi borligini bilamiz. Rus adabiyotida o'ziga xos individual uslub yaratgan yozuvchilar, Ayniqsa XIX asrda ko'p etishdi. Masalan, Dostoevskiy, Saltikov-Shchedrin, Nekrasov, Turgenev va boshqa klassiklar shular jumlasidandir. Rus adabiyoti klassiklari Gor'kiy, Mayakovskiy, Fadeev, Sholoxovlarning ham o'ziga xos stili bor, xuddi shu kabi O'zbek rus adabiyoti namoyandalari-Hamza Xakimzoda Niyoziy, Oybek G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, A. Qaxxorlar ham o'ziga xos uslub yaratganlar. Uslub yaratgan yozuvchi asariga nomi qo'yilmasa ham uning avtorini bilib olish mumkin. Misol qilib zo'r talant egasi F. M. Dostoevskiyni ko'rsatish mumkin. Garchand Dostoevskiy o'z asariga familiyasini qo'ymasa ham uning asari o'qilganda u Dostoevskiyniki ekanligi ma'lum bo'lib qoladi. PUSHKIN, Karamzin, Dostoevskiylar o'sha zamonlarda ba'zi bir sabablarga ko'ra o'z asarlariga ism, familiyalarini qo'ymasdan nashr qilganlar, ko'pgina olimlar bu masalani aniqlash uchun bosh qotirganlar va ijobiy natija chiqara olmaganlar, har qaysi yozuvchining uslubini bilgan, stilistika qonunlarini yaxshi o'rgangan akademik V. V. Vinogradov ko'p mexnat sarf etib, o'sha asarlarning avtorini aniqlab berdi va bu bilan rus adabiyoti fondini boyitdi.

Har bir mohir yozuvchi o'ziga yarasha individual uslub yaratish kerakligini biladi, boshqa yozuvchilardan ajralib turadigan hususiyatlarni qidiradi va uni

topishga harakat etadi. Talantli yozuvchilar bunga muyassar bo`ladilar. Xamid Olimjon bilan G`afur G`ulom she`rlarini solishtirib ko`ring, ular bir-biriga xech ham o`xshamaydi, har qaysisining o`ziga xos hususiyati bor. Yoki Oybek bilan Abdulla Qaxxorning nasriy asarlarini chogishtirsangiz har ikki san`atkorni bir-biridan ajratib turadigan farq borligini bilib olasiz, har ikkovining o`ziga xos yo`li mavjud, jumla to`zilishlari har xil, majoz, istiora, uxshatishlari bir-biridan tamom ajralib turadi, bundan tashqari, har ikkovining temasi, obrazlar sistemasi, syujeti, kompozitsiyasi, butunlay boshqachadir. Basharti Oybekning nomi qo`yilmagan asarini o`qir ekansiz, uni Abdulla Qaxxorniki deb ayta olmaysiz va aksincha, Abdulla Qaxxorning asarini Oybekniki deb xukm chiqarib bulmaydi. Demak ularning o`ziga xos uslub-stili bor.

Stilning ikki xil ma`nosi bor: tor ma`nodagi uslub va keng ma`nodagi uslub. Yozuvchilardagi uslub bu tor ma`noga kiradi. Keng ma`nodagi uslub esa o`z ichiga katta-katta masalalarni oladi, masalan, oddiy nutq stili, tashviqot-targ`ibotchilar nutqi stili, gazeta maqolalalari stili, ilmiy, fanniy, texnika asarlari stili, rasmiy va ish yuritish xujjatlari stili va xokazolar. Bundan tashqari, yumoristik uslub, satirik uslub, intim-ichki xissiyot stillari borki, bo`larning har biri ma`lum hususiyatlarga ega, har qaysisining o`ziga yarasha ichki to`zilishi (strukturasi), termin leksikalari mavjud.

Uslub so`zini san`atga nisbatan ham ishlatadilar, masalan, arxitektura stili, musiqa stili, rassomchilik stili va boshqalar. Har qaysi tarixiy davrning o`z stili bo`lib, bular ma`lum bir metod va metodologiya bilan bog`langan. Uslub va stilistika tarixi qadim davrlarga borib taqaladi. Masalan, Rossiyada XVI asrning ikkinchi yarmidan XVIII asrning oxirigacha adabiyotda uch asosiy uslub xukmron edi⁶, ular Yuqori uslub, o`rta uslub, tuban stilga bulinardi. Bu uch uslub sistemasini nazariy jixatdan Lomonosov asosladi va har qaysi stilga kiradigan so`zlarni guruhlarga ajratdi. Birinchi cherkov-slavyan tilida boru, lekin rus tilida yo`q so`zlar, uchinchi guruhga esa faqat rus tilida bor, lekin cherkov-slavyan yodgorligida bo`lmagan so`zlarni kiritdi. Yuqori stilda cherkov-slavyan tilidagi

⁶ В. Г. Белинский, Собр. соч., в трех томах, т. II, М., Огиз, 1948, стр. 604

soʻzlar ishlatilsa, tuban stilda esa cherkov-slavyan tili soʻzlari ishlatilmas edi. Bu uch stilning oʻz janrlari boʻlib, yuqori stilda qaxramonlik dostonlari, qasida (oda), tantanali nutqlar yozilardi, oʻrta stilda satira, elegiya, tarixiy asarlar, tuban stilda esa komediya, kushiq oʻrtoqlik xatlari yozilardi⁷.

Pushkin rus adabiy tilini qayta ishlab, uni rus xalq jonli tili, leksikasi bilan boyitdi, shu bilan butun rus xalqining faxriga aylandi.

Oʻzbek adabiyotida uslub tarixi hali oʻrganilgani yoʻq. Navoiy davrigacha boʻlgan adabiy uslub, Navoiy davri adabiy stili va undan keyingi davr adabiy stillari oʻrganilishi kerak

Ulugʻ shoir Navoiy oʻzbek adabiy tilining asoschisi boʻlib, olamshumul asarlar yaratdi. U oʻzbek tilining ravnaqi uchun mardonavor koʻrashib, avlodlarga Oʻzbek adabiy tilini asoslovchi qimmatli ilmiy asarlar qoldirdi. Alisher Navoiy adabiyotimizda kattakon adabiy maktab yaratdi. Navoiy maktabi keng tomir yoyib, undan keyin ham davom etdi. Klassik adabiyotimiz namoyandalari Navoiy taʼsiri ostida, Navoiy anʼanalaridan foydalanib ish qurdilar. Afsuski, bular haqida, yaʼni oʻzbek adabiyotidagi uslub tarixi haqida xaligacha maxsus bir ilmiy asar vujudga kelganicha yoʻq.

Badiiy tarjimada uslub masalasi toʻgʻrisida soʻz yuritish ekanmiz, uslub va stilistika tugʻrisida aytilgan yuqoridagi gaplarga ham eʼtibor qilishimiz kerak boʻladi.

Tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima etar ekan, uning stilini albatta berishi kerak Bu adabiy tarjimaning asosiy qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa original asarning stilini bera bilishidadir. Agar tarjimon oʻsha yozuvchining stilini bermasa, u vaqtda tarjima boʻsh chiqadi va nursiz, rangsiz, qonsiz, chala jonday boʻlib koʻrinadi. eng mohir tarjimonlarning asarlari shuning uchun ham oʻlmas asarlar boʻlib qoladiki, ular original asar avtorining ruhi va uslubini bera oladilar. Bu ogʻir vazifani bajarish uchun tarjimon har turli yoʻllarni axtaradi, oʻz qalamini charxlab oʻtkiraydi, natijada mashxur tarjimonga aylanadi. Mashxur

⁶ В. В. Виноградов, Проблема авторства и теория стилей, М., ГИХЛ, 1961, стр. 8.

⁷ В. В. Томашевский, Язык и услуб. Л., 1952, стр. 9.

yozuvchi, tarjimon, filologiya fanlari doktori Korney Chukovskiy «**Asl nusxaning stilini bera olgan badiiy tarjimagina aniq tarjima bo`la oladi**»⁸,—deb yozgan edi.

Darxaqiqat, muallif stilini berolmagan va uni buzgan tarjima qanotsiz, dumi yulingan cho`loq qushga o`hshaydi. Bu tarjimani tarjima deb ham bo`lmaydi. Uni taxrir qilib, tuzatib chiqish amrimaxol. Yaxshisi ularni qaytadan tarjima qilish kerak

1.2 O'ZBEKISTONDA TARJIMONLARNING TARJIMA USLUBINI BERILISHI HUSUSIDA.

⁸ «Литературная газета», 3 августа 1963 года

Bizda asl nusxa uslubini bergan tarjimalar ko`p, mohir tarjimonlar bu og`ir ishni sharaf bilan bajarganlar. Oybek, N. Alimuhamedov, Chulpon, Sanjar Siddiq Xamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirzakalon Ismoilov, Mirtemir, G`ofur G`ulom, Shayxzoda, Zulfiya, Vaxob Ro`zimatov, Abdulla Qaxxor, Sharif Tolibov, Malik Raxmonov, R. Abduraxmonov, Odil Sharapov, Mirkarim Osim, I. Shamsharov, Askad Muxtor kabi o`tkir tarjimonlar original uslubni berish uchun juda ko`p bosh qotirishgan. Shuning uchun ham ularning tarjimalari yaxshi chiqqan. Fikrimizni isbotlash uchun yuqorida, nomlari zikr qilingan tarjimonlardan Oybek, Abdulla Qaxxor, Mirtemirlarning ba`zi bir tarjimalaridan misollar berish bilan cheklanmokchimiz.

Oybek «Evgeniy Onegin»ni tarjima qilar ekan, uning butun boblarini, bandstrofalarini aynan ag`dargan, asarni to`lalgicha yaxlit bergan.

Ma`lumki, ulug` munaqqid V. G. Belinskiy A. S. PUSHKINning «Evgeniy Onegin» she`riy romanini «rus xayotining qomusi» degan edi. Bu asarning o`ziga xos yuli, chuqur mazmuni va shu ma`noga mos keladigan go`zal shakli bor. «Onegincha strofa» degan mashhur she`riy forma, o`ziga xos qofiya sistemasiga ega. «Onegincha strofa» 14 misradan, ya`ni uchta turtlik va bitta ikkilikdan iborat. Bunda birinchi misra bilan uchinchisi, ikkinchisi bilan turtinchisi, beshinchisi bilan oltinchisi, ettinchisi bilan sakkizinchisi, to`qqizinchisi bilan un ikkinchisi, uninchisi bilan un birinchisi va nihoyat un uchinchisi bilan un turtinchi misralari bir -birlari bilan kofiyalanadi. «Onegin bandlari» sxemasi abab vvgg deed jj dan iboratdir. Oybek ushbu she`riy roman shaklini to`la saqlab, «Onegin bandlari» ni O`zbek tilida bera oldi. Mana bir misol:

Onegin, ya togda moloje,

Ya luchshe, kajetsya, bila

I ya lYubila vas; i chto je?

Chto v serdtse vashem ya nashla?

Kakoy otvet? Odu surovostv

Ne pravda l'? Vam bila ne novost'

Smirennoy devochki lYubov'?

I ninche-boje!-stinet krov',
Kak tol'ko vspomnyu vzglyad Xolodniy
I etu propovedv... No vas
Ya ne vinYu: v tot strashniy chas
Vi postupili blagorodno,
Vi bili pravi predo mnoy:
Ya blagodarna vsej dushoy...⁹

Onegin, u chog'lar yosh edim ancha,
Go`zalrok ham edim shekilli u choq.
Men sizni sevardim; qani natija.
Kalbingizdan nima topdim men biroq
Kanday javob oldim? Faqatgina kaxr,
Yuvosh, sodda kizning sevgisi axir
Siz uchun yangilik emasdi lekin?
Qonimni koplaydi -yohu! izg'irin
Yolg'iz esga tushsa u sovuq bokish,
Va`zingiz... Lekin men sizga, albatta,
Biron ayb takmayman: mudhish soatda
Kalbingiz ko`p olijajoblik qilmish,
Siz haqli edingiz menga nisbatan
Tashakkur qilaman butun kalbimdan¹⁰

Ushbu misolda tat'yananing xayajoni, ichki ruhi, kechirmalari tarjimada ham asl nusxaday aks etgan. «Evgeniy Onegin» dagi qofiyalar sistemasi saqlanganidan tashqari ular jarangdor va to`lakonli kofiyalardir. Masalan: «**Ancha-natija**», «**U choq—biroq**», «**Qaxr-axir**»_g «**Qilmish-boqish**» va hokazo.

XIX asr rus klassik adabiyotida o`ziga xos uslub yaratgan ulug' yozuvchilardan biri N. V. Gogol' bo`lib, uning «Ulik jonlar», «Uylanish», «Revizor» degan nodir asarlari jahonga mashxur. «Gogolning eng katta xizmati

⁹ А. С. Пушкин, Евгений Онегин, VI., Гослитиздат, 1936, стр. 223.

shundaki, deb yozgan edi N. G. Chernishevskiy, -u rus nafis adabiyotiga satirik yoki, yana ham to`g`risi, tanqidiy okimni kiritdi va uni mustahkamladi». N. V. Gogol' xajviy asarlarida unutilmas, yorqin obrazlarni yaratdi, satirik kuroli bilan jamiyatdagi chirkin illatlarni fosh qilib tashlaydi. Gogol' o`z komediyasi haqida shunday deb yozadi: «Men «Revizorov» da Rossiyadagi o`sha vaqtda o`zim bilgan hamma yaramasliklarni, ro`y berib to`rgan hamma adolatsizliklarni bir nuqtaga to`plab ko`rsatishga, bir varakayiga hamma narsa ustidan kulishga karor qildim». Gogolning «Revizor» asari ko`p mamlakatlar sahnalarida qo`yildi va qo`yilib kelmoqda, bu asar O`zbek saxnasida ham qo`yilib, katta muvaffaqiyat qozonib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo`ldi. Mazkur asarning O`zbek tilida ikkita yaxshi tarjimasi bor, biri Sanjar Siddiq tarjimasi, ikkinchisi, Abdulla Qaxxor qalamiga mansub. Atoqli adib, mohir tarjimon Abdulla Qaxxor juda ko`p asarlarni tarjima qilib, O`zbek tarjima tarixida alohida o`rin egalladi, A. PUSHKIN, N. Gogol', L. Tolstoy, M. Gor'kiy asarlarini tarjima qilar ekan, ularnng uslubini saqlab qoldi, asl nusxaning ruhini bera oldi. Viz bu erda Abdulla Qaxxor tarjima qilgan «Revizor»dan bir misol keltirmoqchimiz, ushbu misol A. Qaxxorning N. Gogol' uslubini naqadar chiroyli qilib berganiga shoxid bo`la oladi.

Bobchinskiy -Kak skazal on mne eto, a menya tak vot svishe i vrazumilo.
«E!»-govorYu ya Petru Ivanovichu...

Dobchinskiy -Net, Petr Ivanovich, eto ya skazal: «E!»

Bobchinskiy -Snachala vi skazali, a potom i ya skazal. «E!—skazali mi s Petrom Ivanovichem.—A s kakoy stati sidet' emu zdesv, kogda doroge emu lejit v SaratovskuYu guberniYu?» Da-s! A vot on-to i est' etot chinovniq

Gorodnichiy-Kto, kakoy chinovnik?

Bobchinsknn -Chinovnik-to, o kotorom izvolili poluchit' notatsiYu, revizor.

Gorodnichiy (v straxe) -Chto vi, gospod' s vami! eto ne on.

Dobchinskiy-On! I deneg ne platit, i ne edet. Komu je b bit', kak ne emu? I podorojnaya propisana v Saratov.

Bobchinskiy -On, on, ey bogu, on... Takoy nablyudatel'niy: vse obsmotrel.

¹⁰ А. С. Пушкин, Танланган асарлар. IV том, Тошкент, Ўздавнашр, 1955, 166-бет.

Uvidel, chto mi s Petrom-to Ivanovichem eli semgu, bol'she potomu, chto Petr Ivanovich naschyot svoego jeludka... da. Tak on i v tareki k nam zaglyanul. Menya tak i pronyalo straxom.

Gorodnichiy-Gospodi, pomiluy nas greshnix! Gde je on tam jivet?

Dobchinskiy -V pyatom nomere, pod lestnitsey.

Bobchinskiy-V tom samom nomere, gde proshlogo goda podralis' proezjje ofitseri.

Gorodnichiy-I davno on zdes'?

Dobchinskiy-A nedeli dve uj. Priexal na Vasil'ya Egiptyanina.

Gorodnichiy-Dve nedeli! (V storonu). BatYushki, svatushki, vinosite, svyatie ugodniki, v eti dve nedeli visechena unter-ofitsereskaya jena! Arestantam ne vidavali provizii. Na ulitsax kabaq nechistota. Pozor! Ponoshen'e! (Xvataetsya za golovu)¹¹.

Abdulla Qaxxor tarjimasi:

Bobchinskiy-Shunday degandan keyin darrov kallamga bir fikr keldi-yu Petr Ivanovichga «Ey» dedim.

Dobchinskiy-Yo`q Petr Ivanovich, avval men «Ey» dedim.

Bobchinskiy -Avval siz «Ey» dedingiz, keyin men xam aytdim. Petr Ivanovich, ikkovimiz «Ey» dediq «Saratov gubernasiga boradigan bo`lsa, bu erda nima qilib o`ltiradi?» o`sha chinovnik mana shuning o`zginasi.

Xokim-Kim, qanaqa chinovnik?

Bobchinskiy-Olgan xatingizda aytilgan chinovniq revizor!

Xokim (vahimaga tushib)—Qo`ysalaring-chi, xudo saqlasin, u emas.

Dobchinskiy-O`sha! Nasiyaga ovqat eb, pul bermasa, bir yoqqa ketmasa, o`sha bo`lmay kim bo`ladi? Qog`ozi Saratovga yozilgan emish.

Bobchinskiy-O`sha, azbaroyi xudo, o`sha... hamayoqqa razm soladi. Xammayoqni ko`zdan kechiradi. Petr Ivanovich ikkovimizning baliq eb

¹¹ Н. В. Гоголь. Собрание художественных произведений, В пяти томах, том IV, М., Изд—во Акад. наук СССР, 1952, стр. 21.

o`tirganimizni ko`rib... Petr Ivanovichning qorni juda och bo`lgani uchun ko`proq baliq olgan edik.. Oldimizdagi tarelkaga ham qarab qo`ydi. Xammayoqqa shunday razm soldiki, esim chiqib ketdi.

Xokim-Xudoyo xudovando, biz gunoxkorlarni o`zing kechir. U qaerda turar ekan?

Dobchinskiy -Zinaning tagidagi beshinchi nomerda.

Bobchinskiy -Bultur ofitserlar qo`nib mushtlashgan uyda

Hokim-Kachondan beri To`ra r ekan?

Bobchinskiy -Ikki xaftacha bo`libdi. Bayram kuni kelgan ekan.

Xokim-Ikki xafta! (Chetga qarab). Yo azizlar... o`zlaring madad qilinglar! Bu ikki xafta ichida unter ofitserning xotini kaltaklandi, maxbuslarga oziq-ovqat berilmadi. Ko`chalar kovoqxonaga o`xshaydi. Or, nomus! Iflosgarchilik! (Boshini ushlaydi)¹².

Ushbu keltirgan parchamizda xar bir obrazning tili, karakteri yaqqol ko`zga tashlanib turadi. O`zini aqlli odam deb gerdayib, ulug`vor to`tgan, «vaximadan shodlikka, pastkashlikdan takabburlikka tez utadigan» xokim va hamma vaqt bidirlab gapiruvchi, maxmadona, ezma Bobchinskiy, Dobchinskiylarning karakterlari ham tarjimada xuddi asl nusxadagiday jonli qilib berilgan. Bobchinskiyning «A menya tak vot svishe i vrazumilo, «E!» govoryu ya Petru Ivanovichu». «Darrov kallamga bir fikr keldi-yu Petr Ivanovichga «Ey» dedim», Dobchinskiyning: «Net, Petr Ivanovich, eto ya skazal: «E!»—«Yo`q Petr Ivanovich, avval men «Ey» dedim» tarzida tarjima etilishi Abdulla Qaxxorning avtor uslubini ustalik bilan payqab olganini bildiradi. Mana shu «Ey!» so`zila ko`p gap bor, «darrov kallamga bir fikr keldi-yu» jumlasini ham ezma Bobchinskiyning karakterini ochib berishga xizmat qiladi. Xokim so`zlarining tarjimasiga qarang: «v eti dve nedeli visechena unter-ofitserskaya jena!»-«bu ikki hafta ichida unter-ofitserning xotini kaltaklandi», «arestantam na vidavali provizii» -«maxbuslarga oziq-ovqat berilmadi», «Na ulitsax kabaq nechistota», «Ko`chalar qovoqxonaga uxshaydi», «Pozor! Ponoshenve! (Xvataetsya za golovu)» -«Or, nomus!

¹² «Ватан адабиёти». Хрестоматия 7-синф учун, (Тўзувчилар: Х. Ёқуб, Х. Росул], Ж. Шарапов тахрири

Iflogarchilik! (*Boshini ushlaydi*)».

Ko`rib turibsizki, asl nusxa bilan tarjimada xech kanday farq yo`q xuddi siz o`zingizni original asar o`qiyotganday sezasiz, zavqlanib, orom olasiz.

Otaxon tarjimon, klassik adib Abdulla Qaxxor o`zining sonsanoqsiz tarjimalarida asl nusxa avtorining uslubini to`la saqlab qolishga erishgan, shuning natijasida nodir tarjima obidasini yuzaga keltirgan edi.

Muallif uslubini yaxshi bergan nodir tarjimalardan yana biri N. A. Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» asarining tarjimasidir. Mazkur asarni Mirtemir katta zavq jo`shqin ilxom bilan muvaffaqiyatli tarjima etgan. Bu tarjimaning sifati xaqida biz mazkur Mirtemir tarjimalari xasida baxs etuvchi bobida to`xtab o`tganmiz, bu erda biz Mirtemirning Nekrasov uslubini kanday berganligi haqida bitta misol keltirmokchimiz.

Rusiyaning turli qishloqlaridan bir erga to`plangan etti sayyox «Rusiyada kim xushvaqt, dorilamon yashaydi?» deb baxslashib Yulga chiqadilar, pop, pomeshchik va boshqalar bilan uchrashib «Rusiyada kim yaxshi yashaydi?» degan savolni berishadi va ulardan javob olishgach, yana yo`lga ravona bo`ladilar, mana ular rus ayoli Matryona Timofeevna bilan ham uchrashib qolib unga qo`yidagicha murojaat qilishadi:

-Mo' lyudi chujestranno'e,

U nas zabota yest ,

Takaya li zabotushka. ,

Chto iz domov povo'jma,

S rabotoy razdrujila nas,

Otbila ot yedo'.

Mo' mujiki stepenno'e,

Iz vremenno -obyazanno'h

Podtyanutoy gubernii,

Pustoporojney volosti,

Iz smejno'x dereven : Neso'tova.

Biz -olis ellardanmiz

yuribmiz bir tashvishda

Shundok katta tashvishki

Uyimizga kirgizmas,

Ishga ham qo'l urg'izmas

Hatto xurak yegizmas...

Hatto xurak yegizmas...

Neelova, Zaplatova. Do'ryavina,
Goreloq Goloduxina,
Neurojayna toj.
Idya pute m -do r o go yu,
Soshlisv mo' nevnachay,
Soshlis mo'-i zasporili:
Komu jivetsya schastlivo,
Vol gotno na Rusi?
Roman skazal: pomehiku,
Dem yan skazal: chinovniku,
Luka skazal: popu,
Ko'pchine tolstopuzomu,
-Skazali brat ya Gubino',
Ivan i Mitrodor.
Paxom skazal: svetleyshemu
Vel mojnomu boyarinu,
Ministru gosudarevu,
A Prov skazal: tsaryu...¹³
Muvakkat qarzdor lardan,
Shurpeshona tumani,
Bo'sh -takir volostida,
-Yonma -yon qishloqlardan
-Yamokzor, Juldurravot,
Yalangoch, Ushuktepa
Kuygankent, Yutoksaroy,
Xamda Kdxatkurrondan,
Ketardik yul-yulakay,
Duch kelib qoldik tusat,
Duch keldik-u, dovlashdik:

¹³ Н. Л. Некрасов. Сочинения, т 3, Библиотека «Огонек», М., Издво «Правда», 1954, стр. 83—84

Rusiyada kim xushvaqt,
Dorilamon yashaydi?
Roman dedi: pomeschchik
Dem yan dedi: amaldor,
Luka dediki: yo'q, pop,
Qorni katta savdogar,
Dedilar aka -uka-
Ivan bilan Mitrodor,
Paxom dedi: shavq atli
Oliy mansab zodagon,
Chorning inoq vaziri,
Prov bo'lsa, dedi: chor...¹⁴

Mazkur tarjimaga birinchi nazar tashlaganingizdayoq unda Nekrasov uslubi aks etganini sezib olasiz. Bu yerda Nekrasovning shartli uylab topgan gubernalarni, uezd, qishloq nomlari ustalik bilan O'zbek tilida berilganini ko'rasiz. Majoziy ma'nolariga darhol tushunib olasiz. Pustoporojnyaya volost -Bo'sh-takir volosti, Zaplatovo-Yamoqzor, Do'ryavimo-Yalang'och, Neurojayka -Qahatqo'rg'on va boshqa qishloq nomlarining xuddi Nekrasov asaridagi ma'nolarni aynan ifoda etganini payqab olasiz.

Nekrasov bu majoziy nomlarni bekorga ishlatmagan, albatta. Podsho Rossiyasida xalqlarning og'ir, ayanchli, qashshoq yupun xayotini tasvirlash uchun shoir shunday nomlarni o'ylab topishga majbur bo'lgan. Asarda olingan personajlarning nomlari ham rus qishlog'i uchun tipik nomlar bo'lib, ularning tili, harakteri, xulq-atvori O'zbek tilida ham aynan jaranglaydi. Tarjimon Nekrasov she'riyatining ruhi, mazmuni, vazni, kofiya sistemasini yaxshi bera olganki, bular hammasi Mirtemirning Nekrasov uslubini O'zbek tilida ham aynan tiklaganidan dalolat beradi. Asar tarjimasi aniq va to'la-to'kis, bu noyob tarjima kishini original asar kabi o'ziga tortadi.

BIRINCHI BO'YICHA HULOSALAR

14 И. А. Некрасов, Русияда ким яхти яшайди, Тошкент, Ўздавнашр, 1953, 70-бет

Biz yuqorida u yoki bu shoir adiblarning uslubini O'zbek tilida tarjima orqali berilganligini ko'rsatish uchun bir necha misol keltirdik xolos, ularni ko'plab keltirish mumkin edi. Lekin shularning o'zi ham yuqorida aytgan fikrimizni tasdiqlaydi, deb aytish mumkin. Albatta, asl nusxa uslubini har qaysi tarjimon ham beravermaydi, shuning uchun ham ular bo'sh, xom-xatala, qonsiz, jonsiz tarjimalar bo'lib chiqadiki, bu xol asl nusxa muallifiga nisbatan xiyonat qilishdan boshqa narsa emas. Tarjimon biror badiiy asarni tarjima qilmoqchi bo'lsa, birinchi galda uning uslubini berishga harakat qilishi shart. Buning uchun katta tarjimonlardan o'rganish, ularning to'tgan yullari, tarjima sirlarini bilib olish zarur bo'ladi.

Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan tarjimonning so'z zaxiralari, boy leksikasi, jumla to'zishdagi o'ziga xos hususiyatlari, boshqa tarjimondan ajratib turadigan ayrim yuli bor, tarjimashunoslar ulug' san'atkor, tarjima ustalarining mana shu tomonlarini urganishlari kerak bo'ladi. Ayrim hususiyatlarni umumiy mushtarak hususiyatlar bilan bog'lagan tomonlarini ko'rsata bilishlari nihoyatda zarur.

Tarjimada uslub masalalarini o'rganish muhim va aktual masaladir. Biz u xaqda juda qisqa va uning ayrim tomonlarinigina yoritishga harakat qildik xolos. Tarjimada uslub masalalarini keng va atroflicha, chuqur va ilmiy asosda o'rganishning vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

II-BOB. N. A. NEKRASOV ASARLARI TARJIMASI VA TARJIMADAGI USLUBIY MUAMMOLARI

2.1 Zulfiya - Nekrasov tarjimoni

N.A. Nekrasovning ikkinchi katta asari «Rus ayollari»ni o'zbek tiliga O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya tarjima qilgan. Mazkur asar zamirida bo'lib o'tgan tarixiy voqea yotadi. 1825 yilda rus podshosiga karshi ko'zg'olon ko'targan dekabristlarning ko'plari uldirildi, ko'plari umrbod Sibirga surgun qilinadi. Ana

shular qatorida polkovnik Sergey Petrovich Trubetskoy (1790—1860) bilan general Sergey Grigor yevich Volkonskiy (1788—1865) lar ham bor edi. Ular Sibir konlarida, qo'l-oyog'i kishanda, eng og'ir mehnat qilib jabru jafu tortishadi. Trubetskoyning xotini knyaginya yekaterina Ivanovna, Volkonskiyning xotini knyaginya Mariya Nikolaevnalar erlarining ketidan Sibirga borishadi. Kaxramon rus ayollarinnng jasorati shoirni o'ziga rom qiladi. Zamondoshlarining yozishicha, Nekrasov Mariya Nikolaevna Volkonskayaning xotiralarini o'qib ho'ngrab yig'lagan, maxsus poema yozishga ahd qilgan va o'z ahdi ustidan chiqib, 1871 yilda «Knyaginya Trubetskaya» va 1872 yilda «Knyaginya M. N. Volkonskaya» poemalarini yozadi.

«Rus ayollari» asari mustaqil ikki poemadan iborat bo'lib, shoir ularda rus podshosi Nikolayning jabr-zulmiki, naqadar berahm eqanini fosh qilib, uni o'tkir, otashin she'rlari bilan savalaydi, podshohga karshi g'azab va nafratini bildiradi. Uni hatto jallod deb ataydi. O'sha zamon rus adabiyotida rus ayollarining qaxramonligini Nekrasovday tasvir etgan va Inqilobiy ruh bilan yozilgan asar yo'q deyish mumkin.

O'zbekistan xalq shoirasi Zulfiya «Rus ayollari»ning har ikki poemasini to'lato'kis tarjima etib, tushunishi qiyin bo'lgan so'zlarga izoh berib, nashr qildirdi. Bu Zulfiyaning eng katta tarjima asari edi. Zulfiya Nekrasov haqida yozgan «qamisha safdagi shoir» degan maqolasida o'ttizinchi yillar boshida dastavval Nekrasov asarlarini rus tilida mexr-muxabbat bilan o'qiganini va shoirning otashin she'rlari unda katta taassurot qoldirganini xotirlab shunday deydi.

«Nekrasov-men qattiq ko'ngil bergan birinchi shoir bo'ldi. Uning ketidan, albatta boshqalar ham kirib keldilar. Lekin birinchi muxabbat umrbod birinchiligicha qoladi... Shoirning ko'pgina fazilatlarini men keyinroq uni tarjima etganimda tushundim. «Rus ayollari» poemasinipg tarjimasi-mening bu boradagi eng katta ishimdir. Shoirga bo'lgan kuchli muxabbatim tarjimonlikning mashaqqatli onlarida meni qo'lladi, men o'z zimmamdagi burchni bajarayotgandek edim. Lekin men Nekrasovga, albatta, keyin ham murojaat etdim, hamisha murojaat

etaman. U mening doimiy hamrohimdir»¹⁵. Zulfiya «Knyaginya Trubetskaya» poemasini to'qqiz hijoli vaznda, «Xotima» qismini o'n uch hijoli vaznda asl nusxaga to'g'ri keladigan she'riy ulchovda tarjima etgan, kofiyalar sistemasi ham boshdan oxiriga qadar Nekrasov ishlatgan shaklda saqlangan. Shu printsiptga qattiq rioya qilib, satrlarni oshirmay va kamaytirmay tarjima qilingan, ya'ni asl nusxaning 872 satri tarjimada ham 872 da berilgan. Bu nihoyat darajada qiyin, mushqo'l va og'ir. Lekin Zulfiyaning talanti, mexnatsevarligi bu mushkulni oson qilgan. Og'ir bir yukni yelkasida ko'tarib manzilga yetkazgan Zulfiya sovrinni olib ketdi. Tut-risini aytganda, mazkur tarjima davrimizning nodir tarjimalaridan biridir. «Rus ayollari»ning birinchi poemasidagi asosiy obraz yekaterina Ivanovna Trubetskaya bo'lib, u vatanparvar, shijoatli, qo'rqmas, eriga vafodor, yoru birodarlariga mexribon ayol. U Sibirga ketaetganida shunday deydi:

Prosti i to', moy kray rodnoy,

Prosti, neschastno'y kray!

I to'... o gorod rokovoy,

Gnezdo tsarey... prohay!

Schastlivo molodost moya

Proshla v stenax tvoix

Tvoi balo' lyubila ya,

Katan ya s gor kruto'x

Lyubila plesk Nevo' tvoey

V vecherney tishine,

I etu plohad pered ney

S geroem na kone...¹⁶

Sen ham xush qol, sevimli o'lka,

Alvido, ey bebaxt vatanim!

¹⁵ Зулфия. Ҳамиша сафдаги шоир, «Шарқ юлдузи», 1971, 12-сон., 56-бет.

¹⁶ Н. А. Некрасов. Сочинения, т. 2, Библиотека «Огонек», VI., Изд.—во «Правда», 1954, стр. 86.

Podsholarga shum uya bo'lgan,
Xush qol endi, mash`um shaharim.
Quhog'ingda kechdi baxtiyor
Xayotimning yoshlik chog'lari.
Bazmlaring sevdim beg'ubor,
Sayrgoxim edi toglaring.
Jondan sevdim okshom onlari,
Moviy Nevang xush ovozini.
Zilol kirroq kurkam maydoni
Va qaxramon chavandozini...

Tarjima juda yaxshi chiqkan! Asar mazmuni, badiiy ifodasi, vazn, kofiya - hammasi mayorat bilan berilgan. Faqat uchinchi satrda «shum» so'zi kushilib «podsholarga shum uya bo'lgan» tarzida tarjima qilingan. Lekin bu yer da «shum» so'zining ishlatilishi ma'noga putur yetkazmaydi. Ammo yettinchi satrdagi «bazmlaring sevdim beg'ubor» jumlasida qo'llangan «bazmlar» so'zi asl nusxadagi «balu» ning ma'nosini ifoda kilmaydi. «Bal» atamasini aynan olish mumkin edi, bu so'z ko'pdan adabiy til tarkibiga kirib ketgan.

Trubetskaya qattiq, yul azobini tortadi, u qaqshatqich qora sovuqda, yalang cho'lda chanada keta turib uylab qoladi:

Kipit bol noy, ustalo'y um,
Bessonno'y do utra,
Toskuet serdtse.
Smena dum Muchitel no bo'stra;
Knyaginya vidit to dro'zey,
To mrachnuyu tyur mu,
A mesyats—krasno'm surguchom
Ottisnuto'y krujok
Uydan akl gangigan, xasta,
Uyku bermas xayollar biroq

Dilda xasrat, uy har nafasda
 Almashinar chaqmokdan tezrok;
 Knyaginya gox yeru do'st i,
 Gox tyur mani ko'rar daf'atan.
 Xudo bilar, nedir boisi
 Uylab ketdi shu xolni birdan...
 Uyladi u: yulduzli osmon
 Kum sepilgan saxifa fakdt.
 Oy-chi -qizil surgich bosilgan
 Yum -yumalokq mux.irdir albat...²

Obrazli ifodalar tarjimasiga nazar tashlang: «Nebo zvezdnoe-peskom
 poso'panno'y listok -yulduzli osmon kum sepilgan saxifa faqat», «a mesyats
 krasno'm surguchom ottisnuto'y krujok -Oychi-kizil surgich bosilgan yum-
 yumaloq muxrdir albat...» jumalari asl nusxadan xech farqi yo'q. Nekrasovning
 tasviriy vositalarini Zulfiya zo'rma-zo'raki tarjima kilmaydi, ular shoiraning
 yuragidan chiqqan tulkinlardai okib kela beradi.

Knyaginya Trubetskayaning harakteri, Ayniqsa, gubernator bilan bo'lgan
 dialogda yanada yorokinrok ochilgan. Trubetskaya ikki oy yul yurib Irkutsk
 shahariga kelganda unga shahar xokimi peshvoz chizadi, Nekrasov
 gubernatorning portretini shunday chizadi:

Kak mohi sux kak palka pryam,
 Vo'sokiy i sedoy. Spolzla s
 plecha yego doxa,
 Pod ney-kresto', mundir,
 Na shlyape-per ya petuxa.

Suyakday koq tayokday tikka,
 Soch-soboli oppok kor kabi.
 Xiyol ochiq pustil kuksidan
 Ko'rinardi mundir, krestlar.
 Boshidagi kalpoq ustida

Pochetno'y brigadir,

Xo'roz pati mayin qilpirar.

Rugnuv za chto-to yamhika,

Ne uchundir so'qib yamshchigin

Pospeshno podskochil

Knyaginya tomon u shoshdi

I dvertso' prochnogo vozka

Va chananing kichiq eshigin

Knyagine otvoril...

Uning o'zi izzatla ochdi.

Mazkur satrlarni o'qir ekansiz, ko'zingiz oldida podsho Rossiyasi gubernatorlaridan birining tipik portreti namoyon bo'ladi. Tarjimaning har bir satri tangaday qo'yilgan, yarkirab, jaranglab turipti, okori ketmagan kofiyalarga ko'z kirini tashlang: «Kuksidan-ustida», «yam-shchigin-eshigin» va hokazolar. Zulfiya o'zi aytganiday tarjimaga ham original asar kabi zo'r mas'uliyat bilan qarab, qattiq meqnat qiladi va shu mashaqqatli ijodiy mehnatdan zavq oladi.

Nekrasov gubernatorning portretno'y chizishda «Na shlyape -per ya petuxa» - «Shlyapasida xuroz pati» degan jumlaning atayin ishlatgan, shu shtrix (chizik) bilan uning kibr xulkining ko'rsatmochi bo'lgan. Gubernator kishilar bilan so'zlashganda o'zini magrur, uta sipoh tutib gerdayadi. Trubetskaya undan «farmon bering, otlar qo'shilsin» deb iltimos qilganida gubernator uni shartta rad qiladi, «tayyormasmi chanamiz?» deb so'raganida gubernator:

Bulmaguncha mepdan bir buyruq

Bermaydilar otlarni sizga,

deb dag'dag'a bilan javob qaytaradi; so'ng knyaginya: «otlar yulga hozir bulmadimi?» deya takror suraganida shahar xokimi o'zining xak -xuquqlarini pesh qilib javob beradi:

Yo'q, men hali farmon bermadim, Knyaginya, bunda men sulton. Gubernator Trubetskayaga yul azobini, Sibir iqlimining daqqatini, oldda baxtsizliklar kutishini, maxbuslarning, shu jumladan, erining ham chidab bulmaidigan og'ir turmushini bir-bir sanab utadi: «Ma'dan konlar jaxannam tagi, maxbuslarning xayoti daxshat» ni aytib «eringizla rubaru turish bir nafas ham bulmaidi nasib», «siz esa kazarmada yashaysiz» deb ukdiradi. Trubetskaya bo'larga dadil javob beradi.

Knyaginya

Qo'rqinchlidir bilaman ammo

Ko'rar ko'pi mening erimning.

Unikidan bo'lmasin a'lo,

Mayli, qolgan qayotim mening!
O'qdirmog'im farz erur goyat,
Zinhor-zinhor bu yuldan bormang
Tavba! Nahot o'sha mamlakat
Loyiq bo'lsa kadamingizga.
Og'zingizdan chiqqan bug' shu payt

Gubernator

Aylanadi kor bilan mo'zga!
Siz u yerda kurmaydiz qayot,
Iklim sizni qilar juvonmarg.
Yuz kechayu kundo'z qorong'i
Chulgaganda yeru osmonni,
Shum ulkadan qattoki qurquv
Ichra kochar o'rmon qayvoni...¹

Knyaginya

Yashaydi-ku, inson u yurtda,
O'rganarman men ham bermalol
Zulmat, sovuq yil buyi hokim,
U yerda yoz kurmaydi umr.
Botqoqikdan burqib betinim,
Ko'tarilar zaqarli qovur.¹⁷

Ushbu tarjimani asl nusxaga solishtirishdan ilgari shuni aytish kerakki, Nekrasov «Knyaginya Trubetskaya» poemasiining so'nggi ikkinchi bulimini faqat dialog tarzda bergan. Ya`ni knyaginya bilan gubernator o'rtasida o'zaro gaplashish shaklida yozgan va shu usulni oxiriga qadar saqlagan. Gubernatorning har bir so'ziga knyaginya qisqa va dalil javob berib shahar xokimini lol qoldiradi. Mana yuqorida keltirilgan tarjimaning asl nusxasi:

¹⁷ Н. А. Некрасов. Рус аёллари, 20-бет.

Knyaginya

Ujasna budet, znayu ya,
Jiznv muja mos go.
Puskay je budet i moya
Ne radostney yego!
Bejit i zver lesnoy,
Kogda stosutochnaya noch
Povisnet nad stranoy.

Gubernator

No vo' ne budete tam jit :
Tot klimat vas ub yet!
Ya vas obyazan ubedit ,
Ne yozdite vpered!
Ax! Vam li jit v strane takoy,
Gde vozdux u lyudey
Ne parom-po'l yu ledyanoy
Vo'xodit iz nozdrey?
Gde mrak i xolod kruglo'y god,
A v kratkie jaro' -
Neproso'xayuhix bolot
Zlovredno'e paro'?'
Da... strashno'y kray! Otkuda Proch

Knyaginya

Jivut je lyudi v tom krayu,
Privo'knu ya shutya...¹⁸

Har bir kitobxon ham ushbu tarjimani asl nusxa bilan satrma-satr chog'ishtirib chiqsa, uning originalga monandligini darrov payqab oladi. Knyaginya va gubernatorning o'ziga xos so'zlari ustalik bilan ugirilgan, har ikkovining harakteri ham shu dialoglarda ochilgan, tarjimaning har bir satrini

¹⁸ Н. А. Некрасов. Сочинения, т. II, стр. 100—101.

o'qib turib soxibiga ofarin, deging keladi.

Darxaqiqat, «Ujasna budet, znayu ya-kurkinchlidir bilaman, ammo», «No vo' ne budete tam jit -siz u yerda kurmay siz hayot», «Ya vas obyazan ubedit - ukdirmogim farz erur g'oyat», «Gde mrak i xolod kruglo'y god-zulmat, sovuk; yil buyi xokim», «Neproso'xayuhix bolot zlovredno'e paro' -botkoklikdan burkib betinim, ko'tarilar zaharli xovur» va xokazo satrlar bir-biriga egizak emasmi?

Og'izdan chiqqan bug' shu payt

Aylanadi qor bilan mo'zga!

satrlari asl nusxadagi:

Gde vozdux u lyudey

Ne parom -po'l yu ledyanoy

Vo'xodit iz nozdrey?¹⁹

satrlarining o'zi emasmi? Yoki gubernatorning «Yuz kechayu kunduz qorong'i chulg'aganda yeru osmonni, shum ulkadan hattoki qurquv ichra qochar o'rmon xayvoni... so'zlari asl nusxaga zidmi? Yo'q albatta. Ularda hech kanday farq yo'q. To'g'ri, tarjimon ba'zi bir satrlarga aniqlik kirgizishi mumkin edi. Masalan, «Ne yozdite vpered!» satrini tarjimon «Zinxor -zinxor bu yuldan bormang!» deb tarjima etgan. Vaxolonki, gap bu yerda u yoki bu yuldan borish to'g'risida ketayotgani yo'q «endi oldinga bormang, keyinga kayting» degan ma'noda aytilayapti. Ust-ustiga «zinxor-zinxor» so'zlarini ishlatib, utinib yolvorib aytilishi gubernatorning harakteriga zid, umuman, bu so'zlar asl nusxada yo'q. Gubernator knyaginyani yuldan qaytarish uchun ham ma'choralarni ko'radi, unga ketishga ruhsat etmay, bir necha kun ushlab To'ra di, hatto oxirida, «etap bilan ketasiz» deb duk uradi. Knyaginya bu so'zning ma'nosini so'raganda:

Bu-ashaddiy o'g'ri, bosh kesar,

Kishanlangan maxbus galasi. Yarog

¹⁹ Н. Л. Некрасов. Сочиненргя, т. II, стр. 100

tutib ko'zatib ketar, Kazaklarning
beraqm bandasi...²⁰

deydi va etap bilan boruvchilarning bir arkonga bog'langan xolla, qo'l-oyog'i kishanda yul bosishini, ko'plarning xalok bo'lishini, bir pashshaday ulib ketishini uktirgan gubernator: «Knyaginya, kayting siz endi!» deb talab qiladi. Ammo knyaginya etap bilan ketishga ham rozi!

O net! Ya etogo jdala...	Oz\$ bas! Sizdan ko'tgandim buni,
No vo', no vo'... zlodey!	Siz... Siz yovo'z! Bu kanday riyo!
Nedelya tselaya proshla...	Utib ketdi bir 5qafta kunim,
Net serdtsa u lyudey!	Odamlarda shafkat yo'q aslo!
Zachem bo' razom ne skazat ?..	Aytmadingiz pecho'n bir yula,
Uj shla bo' ya davno...	Ketgan bular edim u nafas.
Velite j partiyu sbirat —	Farmon bering, yigsinlar tuda,
Idu! Mne vsyo ravno!.. ²¹	Menga farqsiz, tez junasam bas! ³

Ko'rib turibsizki, Trubetskaya asl qaxramonlarday har kanday tusiqlarni yengib, mardonavor harakat qiladi. Zulfiya shu rus ayoli obrazini Nekrasov tasvir lagandek yurak qo'ri bilan tasvir lagan. Bu keltirgan parchamizda qo'rqmas, vafodor, buyuk insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, o'z davrining ilg'or rus ayoli obrazi gavdalanib To'ra di va uning kudratli kuchi mag'rur gubernatorni o'ziga taslim qilishga majbur qiladi. Gubernatorning o'zi ham bunga ikror bo'ladi: «Avf etasiz, sizni qiynadim», chunki «yulingizga g'ov quymoq uchun, olgan edim mustaxkam farmon» deb ochiq aytadi, so'ng otlarni qushishga, Trubetskayaning ketishiga ruxsat etadi.

Zulfiya poema tugagach, oxirida «Xotima» ni ham tarjima qilib bergan. Mazkur xotimani muallif tsenzo'ra nuqtai nazaridan bo'lsa kerak poemaning oxirida bermagan. Boshqa nashrlarida ham shunday, faqat alohida she'r tarzida to'plamga kirgizilgan. «Xotima» niig tarjimasini ham nihoyatda chiroyli chiqkan.

«Rus ayollari» asari ichiga kirgan ikkinchi bir poema «Knyaginya M.N. Volkonskaya» ning asosiy obrazlari Mariya Nikolaevna va uning eri Sergey

²⁰ Н. А. Некрасов. Рус аёллари, 26-бет.

²¹ И. А. Некрасов Сочинения т. II, стр 107.

Grigor yevich, otasi N.N. Raevskiydir. Asar 1872 yilda yozilgan. Buni Zulfiya 1955 yilda un ikki xljoli vaznda-7K5 turoq bilan to'la-to'kis tarjima qildi.

Shoir Mariya Nikolaevnaning xotiralarini (mazkur xotiralar uning ug'li arxivida saqlangan) o'qib, undan katta taassurot olgan, poema xaqiqiy faktlarga asoslanib «Buvimning esdaliklari» tarzida yozilgan. M. N. Volkonskaya Sibirga surgun qilingan eri oldiga borishda Trubetskayadan ham ko'ra ko'proq azob-uqubatlarni boshidan kechiradi. Avvalo uning otasi-mashxur general, 1812 yil urushining qaxramoni N. N. Raevskiy, qizigaa erining qamalganini aytmaydi, hatto singillari ham bo'lgan voqeann undan yashirishadi. Mariya Nikolaevna surishtirnb erining podshoga qarshi harakatda ishtirok etgani uchun kamalganini biladi-da, turmaga boradi, eri bilan uchrashib, «seni avvalgidan ortiqrok sevaman» deb aytadi. Erini qo'tkqzish uchun qo'ldan kelguncha harakat qiladi, hatto Peterburgga ham boradi. Tosh qalbli imperator o'z xukmidan qaytmaydi. Dekabrist eri umrbod Sibirga yuboriladi. Yigirma yashar Mariya Nikolaevna yosh bolasini uyda qoldirib, erining ketidan Sibirga borishga ahd qiladi, bunga esa otasi ruhsat etmaydi, lekin Mariya Nikolaevnaning axdi kdt`iy:

Prostitute, rodno'e! Mne serdtse davno
Moe podskazalo reshen ye.
I veryu ya tverdo: ot boga ono!
A v vas govorit -sojalen ye.
Da, yejeli vo'bor reshit ya doljna
Mej mujem i so'nom-ne bole,
Idu ya tuda, gde ya bol she nujna,
Idu ya k tomu, kto v nevole!
Ya so'na ostavlyu v semeystve rodnom,
On skoro menya pozabudet.
Pust dedushka budet malyutke ottsom,
Sestra yemu mater yu budet.
On tak yehe mal! A kogda podrastet
I strashnyu taynu uznaet,

Ya veryu: on materi chuvstvo poymet
I v serdtse yee opravdaet!²²
O'zr eting azizlar! Dilim azaldan
Takdirimni qal qilgan, karorim keskin,
Ishonchim zo'r-barisi kodir xudodan,
Siz-chi, raxm va shafkat qilasiz lekin.
Gar tanlamok farz bo'lsa ikki yul, xolos:
Biri utlim va biri tutkundagi er.
Mahbus tomon yelaman, men unda darkor,
O'sha tomon, u tomon, yurak shuni der!
O'g'limni o'z oilam bag'riga olur,
Ko'p utmayin u meni unutadi ham.
Gudagimga bobosi o'z ota bulug' ,
Uni ona mehriга uraydi opam.
Hali ug'lim juda yosh, ulg'ayar, bir kun
Mudhish sirning barchasi bo'ladi-ayon.
Ishonaman: u anglar ona tuyg'usin
Va yurakdan afv etar, komildir imon²³.

Zulfiyaning tarjimasini zargarning ishiga kiyos qilsa bo'ladi, u zarning qadriga yetgan zargarday qunt bilan ishlab, so'zning dur-javoqirlarini tanlab joy-joyiga qo'yadi va chiroyli san`at obidasini yuzaga chiqaradi, Yuqoridagi parchaga bir nazar tashlang, unda naqadar ijodiy mehnat, talant kuchi yarqirab turibdi. Volkonskayaning obrazi shuncha go'zal chizilibdn. Nekrasovning tasvir i qizil olmaning bir pallasi bo'lsa Zulfiyaning tarjimasini o'sha olmaning ikkinchi pallasi. Zulfiya jasoratli rus ayoli Mariya Nikolaevnani o'z qaxramoni kabi katta mexr-muxabbat bilan tasvir laydi. Zulfiya mohir rassom kabi Volkonskayaning suratini huddi asl nusxasiday chizib bergan. Mana Volkonskayaning otasiga aytgan so'zlari o'zbek tilida naqadar jarangdor.

Otajanim; Men uni kurmog'im darkor...

²² П. А. Некрасов. Сочинения, т. 2, стр. 119

²³ Н. А. Некрасов. Рус аёллари, 42-бет.

Hasrati g'ussasidan bo'laman xaloq
Sen o'z burching o'tarkan ayadingmi jon,
Naq shunday ta`lim berding bizga ham xar choq.
Qonli ko'rash qirg'inli jang olovida
Ug'illarni boshlagan qahramon jasur,-
Nahot endi bechora qizning joniga
Ora kirib ko'rmysan qarorin ma`qul.

Biz bu parchani asl nusxa bilan solishtirib chiqdik va undan biror xatoni topolmadik Mariya Nikolayovnaning dadil va keskin aytgan gaplaridan so'ng otasi bir yildan keyin kaytib kelish sharti bilan Sibirga erining oldiga borishiga rozilik beradi. Asarning eng chiroyli, eng taassurotli epizodlaridai biri Mariya Nikolaevnaning jajjigina ug'li bilan xayrlashish onlaridir.

Bebaxt ona tuni bilan ug'lining karavoti yonida utirib, mexriga qonmay, yig'lab mijja qoqmay, tunni o'tkazadi, bu manzarani Zulfiya misli ko'rilmagan extiros bilan dilni larzaga keltiradigan qilib bera olgan.

Tarjimonning qaysi bir saxifasini ochmang, qaysi bir satrini o'qimang, bari asl nushaga mos, katta did va zo'r ilxom bilan tarjima qilingan.

Mariya Nikolaevna ne-ne yul azoblarini yengib, oxiri eri ishlab to'rgan Sibir koniga boradi, qop-qorong'i yo'lakdan quyi tomon-shaxta ichiga to'shadi. Unqir-cho'nqir joylardan o'tib boradi. Eri bilan tezroq uchrashish uchun suv oqib to'rgan zim-ziyo shaxta ichidan shoshib yuguradi. «Yiqilmay qolganimga xayronman hali», «kanday qoldi u yerda boshim salomat» (Ne znayu, kak ya ne upala, kak golovu ya ne ostavila tam) deb eslaydi, keyinchalik Volkonskaya. Nihoyat, visol onlari yaqinlashadi. Mariya shaxtada qo'l-oyogi kishanda ishlayotgan eri bilan uchrashadi. Mana o'sha manzaraning tasvir i:

Sergey toropilsya, no tixo shagal.

Okovo' uno'lo zvuchali.

Da, tsepi! Palach ne zabo'l nichego

(O, mstitel no'y trus i muchitel !)-

No krotok on bo'l, kak izbravshiy yego
Orud yem svoim isko'pitel .
Pred nim rasstupalis , molchan ye xranya,
Rabochie lyudi i straja...
I vot on uvidel, uvidel menya!
I ruki proster ko mne: «Masha!»
I stal, obsessileno'y slovno, vdali...
Dva sso'l no'x yego podderjali.
Po bledno'm xekam yego slezo' tekli,
Prosterto'e ruki drojali...²⁴
Sergey Sergey oshiqar, ammo yurolmas ildam,
Kishani shaqirlardi mungli va g'amli.
Zanjir! Unutmapti hech narsani jallod,
Razil, kurkoq kasoskor, sitamgar, joxil.
Yumshoq ko'ngillik kilmish guyo u bezod
Bog'lab oyoklariga zanjir, kishan zil.
Sergey kelar, ishchilar, soqchilar bari
Sukut ichra chetlanib berishardi yul.
Ko'rgan zamon men tomon yozib qullarin:
«Masha!»—deya qichqirib intilardi ul.
Madori quriganday to'xtadi bejon,
Suyadi ikki maxbus uni shu muddat.
Oqargan yuzlarini yosh yuvar chandon,
O'zatilgan qo'llari titrardi faqat...²⁵

²⁴ Н. А. Некрасив Сочинения, т. 2. стр. 141.

²⁵ Н. А. Некрасов Рус аёллари. 65—66-бетлар.

Tarjimon dekabrist Grigor yevich bilan uning jasur umrdoshi Mariya Nikolaevnaning ichki tuygg'larini asl nusxaday ta'sirli qilib bergan; dim, sikiq qorong'i shaxtada qo'l-oyog'i bog'lanmagan kishining ham ishlashi qiyin, Nikolay podshoning buyrug'i bilan qo'l-oyog'i kishanband qilingan mahuslarning xoli qanday ayanchli! U hayot emas, jaxannamning o'zi! Mana shuning uchun ham ulug' shoir Nekrasov Volkonskaya tilidan Nikolay podshoni «jallod, razil, kurkoq qasoskor, sitamgar, johil» deb ta'riflaydi. O'zbek xalqining faxri, sevimli shoirasi Zulfiya «Rus ayollari» ni to'g'ri, to'la-to'qis tarjima etib, undagi obrazlarni mohirona berdikim, bu bilan tarjima tarixi saxifalaridan munosib o'rin egalladi.

2.2 N. A. NEKRASOV ASARLARINI O`ZBEK TILIDAGI TARJIMALARI BILAN QIYOSLAB O`RGANISH

N.A. Nekrasovning she'rlari O'zbek tiliga aniqrog'i 30-yillarning boshlarida stabil darslik xrestomatiyalar chiqarilishi munosabati bilan tarjima qilina boshlandi.

1932 yili hamma respublikalarda bu ishga muhim davlat ishi deb karaldi. Boshlangich maktablar uchun adabiyot xrestomatiyasining ikkinchi qismi to'zildi. O'rta maktablarning adabiyot darsligini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi Sayd Olim Sharafitdinov bilan hamkorlikda yozdik. Mana shu adabiyot xrestomatiyasi va darsligiga I.A. Krilov, A.S. PUSHKIN, L.N. Tolstoy, N.A. Goncharov, A.P. Chexov, A.M. Gor kiy, D.Bedniy va boshqa rus

klassik yozuvchilarining bir qancha asarlari kiritilib, yozuvchilarning faoliyati va ijodi haqida ma'lumot berilgan. Nekrasovning bir qancha she'rlari ham mazkur xrestomatiya va darsliklarga kiritilgan. Chunonchi: IV sinf adabiyot xrestomatiyasiga Nekrasovning «Dehkon bolalari» degan she'ri kiritilib, uni 1933 yilda Mirzakalon Ismoiliy²⁶, V sinfga kirgan «Unutilgan qishloq» va «Orina-soldat onasi» she'rlarini Elbek tarjima qilgan²⁷.

III sinf uchun to'zilgan adabiyot xrestomatiyasiga Nekrasovning «Ona bo'i» she'rining ham tarjimasi kiritilgan edi. Mazkur xrestomatiya, darsliklar bir necha marta qayta nashr qilinib, millionlarcha nusxada bosildi. O'sha tarjimalardan tashqari o'ttizinchi yillarda N.A. Nekrasovning qator she'rlari tarjima ham qilindi, masalan, «Mazay bobo bilan quyonlar» (Ilyos Muslim tarjimasi, 1938 yil), «Temir yul» (Davron tarjimasi, 1938 yil), «Xurriyat» (Shayxzoda tarjimasi, 1938 yil) va boshqalar, 1935 yilda Nekrasovning she'rlari tarjimasi alohida risola bo'lib chop qilindi (Elbek tarjimasi). Shunday qilib, o'ttizinchi yillarda qilingan tarjimalarni birinchi kaldirgochlar deb aytish mumkin.

40-yillarning o'rtalariga kelib N. A. Nekrasovning bir qancha asarlari tarjima qilina boshlandi. Chunonchi: «Uch elegiya» (Zulfiya tarjimasi), «Eremushqaning allasi», «Volga buyida» (M. Boboev tarjimasi), «Rus ayollari» (poemadan parcha, Shayxzoda tarjimasi) va boshqalarni ko'rsatish mumkin. 1946 yilda N.A. Nekrasovning tanlangan she'rlari O'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. She'rlarni tarjima qilishda: Zulfiya, Hamid G'ulom, M. Boboev, Oxundiy, Ramz Bobojon, Turob To'la kabi shoir-tarjimonlar ishtirok etdilar.

50-yillarda Nekrasovning bir qancha she'rlari tarjima etildi. Masalan: «Kecha, soat edi oltilar», «Ozodlik», «Xavo dim» (Mirtemir tarjimasi, 1953 yil), «Volgada», «Dobrolyubov», «O'quvchi» (M. Boboev tarjimasi, 1953 yil), «She'rdan namuna» (Sulton Akbariy tarjimasi, 1953 yil). O'zbekiston Davlat nashriyoti 1954 yilda Nekrasovning «Bolalar uchun she'rlar» degan to'plamini bosib chiqardi, mazkur to'plamni Atoqli shoir va tarjimashunos olim Korney Chukovskiy to'zib, kirish so'zi va o'qtirishlarni yozgan.

²⁶ С. Шарифий, Адабиёт хрестоматияси, Давлат нашриёти. Ташкент, 1933

Bu davrda Mirtemir shoirning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» poemasini tarjima etdi, undan ayrim parchalar «Sharq yulduzi» va «O'zbekiston xotin-qizlari» jurnallarida (1951 yil) bosilib chiqdi, 1953 yilda esa mazkur poema to'la xolda alohida kitob shaklida nashr qilindi.

O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya 50-yillarning o'rtalarida Nekrasovning «Rus ayollari» asarini tarjima qila boshladi. Bu asarga kirgan ikki poema— «Knyaginya Trubetskaya» bilan «Knyaginya M. N. Volkonskaya» larning tarjimalarini Zulfiya «Sharq yulduzi» jurnalida bostirib chiqardi. O'zbekiston Davlat nashriyoti esa 1956 yilda «Rus ayollari» ni bir qancha ming nusxada nashr etdi. «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» va «Rus ayollari» ning bosilib chiqishi O'zbek adabiyotida katta voqea bo'ldi, keyinchalik bu asarlar bir necha marta qayta-qayta nashr etildi.

1957 yilda O'zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti Nekrasovning «Tanlangan asarlar» ining bir tomligini bosmadan chiqardi. Mazkur to'plamga shoirning bir qancha she'rlari va ikkita poemasi tarjimalari kiritilgan. To'plam shoir Turob To'la tarjima qilgan «Vatan» she'ri bilan boshlanadi. Bundan tashqari Turob To'laning «Maxkama eshigi oldidagi muloxazalar», «Bolalar yigisi», «Qishloqda mexnatning eng og'ir nayti», «Mazay bobo va kuyonlar» kabi tarjima she'rlari, Zulfiyaniig «Rus ayollari» («Knyaginya Trubetskaya» va «Knyaginya M. N. Volkonskaya») poemasi hamda «Yomg'ir oldidan», «Qayda sening qirmizi yuzing», «qaytish», «Qo'shiq», «Uch elegiya», «Oshiqqa» kabi lirik she'rlar tarjimasini, Mirtemirning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» va «Dexqon bolalari» nomli asarlari tarjimasini, M. Boboevning «Qorong'i kuchadan tunda utsam jim», «Men ziyorat qildim mozoring», «O'quvchi», «Eryomushqaning allasi», «Volgada», «Kalistrat», «Dobrolyubov xotirasi», Ramz Bobojonning «Soldat onasi-Orina», «Temir yul», «General Toptigin», N. Oxundiyning «Shoir va grajdanin», «Urilmagan yer» kabi asarlar tarjimalarini to'plamga kiritganlar.

Nashriyot tomonidan to'plamga yozilgan kirish so'zida «Bu tomga kirgan asarlar O'zbek tilida avval alohida—alohida kitob xolida nashr qilingan edi. Ulug'

²⁷ А. Шарафиддинов, С. Шарифий. «Адабиёт дарспиғи». Давлат нашриёти. Ташкент. 1933

yozuvchining she`r va dostonlariga O`zbek kitobxonlarining zo`r e`tibor va talablarini xisobga olib, O`zbek tilida mavjud asarlar chop qilindi.

Bu tanlangan asarlarni nashrga tayyorlash vaqtida, matbuotda bayon etilgan tanqid va maslaxatlarni ko`zda tutib, tarjimonlar qaytadan ko`rib chiqdilar. Nashriyot yaqin yillar ichida buyuk yozuvchining boshqa mashhur asarlarini ham O`zbek kitobxonlariga taqdim qilish niyatidadir»²⁸, deb yozilgan edi.

A. N. Nekrasov asarlarining O`zbek tiliga qilingan tarjimalari haqida tanqidiy maqolalar kam bosildi. Faqat 1947 yilda taniqli tarjimon N. Alimuhamedovning «Sharq yulduzi» jurnalining birinchi sonida «Tarjima san`ati To`g`risida ba`zi muloxazalar» (Nekrasov she`rlari tarjimasi munosabati bilan) nomli maqolasi bosilib chiqdi. Bu maqola katta shov-shuvlarga sabab bo`ldi.

Nabi Alimo`zqamedov 1946 yilda nashr etilgan Nekrasov she`rlari to`plamiga kirgan tarjimalarni mufassal tekshirib, o`zining tanqidiy fikrlarini bildiradi: «Ajabo shuncha she`r ichida o`quvchilarga manzo`r bo`ladigani sira yo`qmi? To`plamdagi she`rlar tarjimasi sifat jixatidan juda rang-barang. Tanqiddan tuban tarjimalar qatorida to`zuklari ham bor. Lekin hammasi, beistisno deyarli, badiiylik jixatidai Nekrasovnikidan ancha past, hatto Nekrasov she`rlariga solishtirishdan kat`i nazar, bir she`r deyarli darajadagidan past to`rganlari ham bor. Ba`zida tarjimonlar xissiyotta hech yetmaydigan, jonsiz, ruhsiz, shirasiz gazet tili bilan tarjima qiladilar »²⁹.

Darqakikat, N. Alimuhamedov o`z fikrini tasdiqlash uchun ishonitirarli misollarni keltiradi, uning ko`rsatgan kamchiliklarini tarjimonlar albatta to`zatishlari kerak edi. Ba`zilari to`zatishdi ham, bu haqda nashriyot 1957 yilda Nekrasovning she`rlari tarjimasini qayta nashr qilishda «Matbuotda bayon etilgan tanqid» (N. Alimuhamedov maqolasi aytilayapti) asosida to`zatilgani yozilgan edi. Lekin ba`zi bir tarjimalar to`zatilmay dolgan. Oradan ancha vaqt utgach, ya`ni 1956 yilda M. Yu. Yunusovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» asari haqidagi

²⁸ Н. А. Некрасов. Танланган асарлар, Тошкент, Ўздавнашр, 1957, 3-бет.

²⁹ Н. Алимухамедов. Таржима санъати тўғрисида баъзи мулохазалар, «Шарқ юлдузи», 1947, 1—сон, 82-бет.

maqolasi bosilib chiqdi³⁰. Maqolada avtor tarjimonning fazilatlarini ko'rsatib, uning muvaffaqiyatli tarjima etilganini yozadi.

N.A. Nekrasovning tugilganiga yuz ellik yil tulishi munosa -bati bilan 1971 yilda uning bir qancha she'rlari tarjima etildi va shoir haqida ko'plab maqolalar bosildi, shular qatori «Nekrasov O'zbek tilida», «Nekrasov O'zbekistonda», «Nekrasov tarjimalari» degan mavzularda bir qancha ilmiy, ommabop maqolalar chop qilindi. Bular ichida Gulnora Rafurovaning «Nekrasov O'zbek tilida»³¹, Sabiha Salomovaning «Rus ayollari»³², E. Shermatovning «N.A. Nekrasov O'zbek tilida»³³ maqolalari diqqatga sazovordir.

Bizni kuvontiradigan siyosiy, adabiy xodisalardan biri shu bo'ldiki, N.A. Nekrasovning turilgan kuniga 150 yil tulishi muno -sabati bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tarix til va adabiyotshunoslik bulimi va A.S. PUSHKIN nomidagi Til va adabiyot instituta birgalikda ilmiy sessiya o'tkazishidir, sessiyada bir qancha muhim dokladlar tinglangan. Ilmiy sessiya 1971 yil 30 noyabrda akademik I.M. Muminovning kirish so'zi bilan ochildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a'zosi M.Q Nurmuham yedov «Rus adabiyotining iftixori», filologiya fanlari doktori, Beruniy mukofoti laureata Xq.I. Yokubov «Lenin N.A. Nekrasov haqida», filologiya fanlari doktori M.Yu. Yunusov «N.A. Nekrasov an`analari O'zbek rus poeziyasida», filologiya fanlari doktori S.M. Mamajonov «N.A. Nekrasov va folvklor», filologiya fanlari kandidati M.M. Rasuliy «Ilg'or adabiy jurnallarni chiqarishda N.A. Nekrasovning roli» va «N.A. Nekrasov asarlarining O'zbek tilidagi tarjimalari» mavzularida doklad qildilar. Ilmiy sessiyaning materiallari yaqin da, 1992 yilda chop etilgan.

Ma'lumki, shoirlar Nekrasov asarlarini sevib o'qib, undan ta'lim oldilar va olmokdalar. Atoqli shoirlarimiz Nekrasov traditsiyasini davom ettirdilar. Korney Chukovskiy «Nekrasov maxorati» nomli monografiyasini yozib, sharaflini unvonga sazovor bo'ldi. «Nekrasov she'riyatda buyuk novator,—deb yozadi Korney

³⁰ Юнусов. Н. Л. Некрасовнинг «Русияда ким яхши яшайди» асари Ўзбек тилида, «Шарк: юлдузи», 3 -сон, 956

³¹ Гулнара Рафурова. Некрасов Ўзбек тилида, «Ўзбек тили ва адабиёти», 1971, 6-сон, 3 -бет.

³² Сабина Саломова. Рус аёллари, «Ўзбекистон маданияти», 1971 йил 7 декабрь.

³³ Э. Шерматов. Н. А. Некрасов Ўзбек тилида, «Тошкент оқшоми» 1971 йил 10 декабрь.

Chukovskiy, -PUSHKINDan keyingi rus shoirlari ichida eng yorokin siymo.

Filosof shoir, mohir tarjimon, Atoqli olim M. Shayxzoda Nekrasov she`rlarini katta shavq va zavq bilan tarjima etarkan shunday deydi:

«Nekrasovning buyuk traditsiyalarini shoirlar o`z ijodlarida davom ettirib keldilar. Turli shoirlar turlicha qilib, o`z ijodlarining xosiyatiga yarasha Nekrasovdan ta`lim oldilar. Lekin Nekrasov ta`sirida o`sgan shoirlarning barchasi uchun chuqur g`oyaviylik xalqparvarlik grajdanlik siyosiy o`tkirlik xalq tiliga yaqin lashuv kabi xislatlar umumiy va mushtarak sifat bo`lib qoldi³⁴.

Nekrasov she`rlarini tarjima qilgan har bir O`zbek shoiri (Mirtemir, Zulfiya, Turob To`la va boshqalar) o`z maqolalarida Nekrasovdan ta`lim olganini, uning asarlari ularda katta ta`ssurot qoldirganini yozadilar. Darxaqiqat, Nekrasov asarlarini tarjima qilish O`zbek shoirlari uchun katta maktab bo`ldi. Nekrasov shu maktabning ustoz, asarlari esa darslik rolini o`ynadi.

Biz bu ishimizda Nekrasovning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» asari hamda «Rus ayollari» poemasi tarjimalari haqida fikr yuritmoqchimiz.

«Rusiyada kim yaxshi yashaydi» Nekrasovning shox asari bo`lib, avtor uni 1863 yilda yoza boshladi. Bu paytda krepostnoy xuquq bekor qilingan edi. Lekin bu bilan rus dexqoni qullikdan qutilmagan edi, aksincha, xayoti yana ham og`irlashgan edi. Nekrasov baxt izlab yurgan yetti muvaqqat qarzdor dehkoni tasvir lab, ularni gox pop bilan, gox mujik gox rus dexqon ayoli, gox pomeschik gox barin bilan uchrashtiradi. Shu bilan usha davr xayotining yaxlit kartinasini chizib beradi, eng baxtli kishilar deganlari baxtsiz bo`lib chiqadi. Qishloqlarning nomiga bir nazar tashlang; «Zaplatovo-Yamokzor», «Duryavino-Julduravot», «Razutovo-Yalangoch», «Znobishina-Ushuktepa», «Gorelovo-Kuygankent», «Neelovo-Yutoksaroy», «Ne-urojayka-Kaxatkurgon» nomlarining o`ziyoq dexqonlarning yupun, kashshoq baxtsiz ekanliklarini bildiradi. Nekrasov bu asarini bir necha yil mobaynida yozdi. Hatto unga 1876 yilda yana qayta qalam urdi, ammo asar tamom bulmay qoldi. Lekin shu xolda ham rus klassik adabiyotida eng katta realistik she`riy polotno sifatida nom chiqardi. «Rusiyada kim yaxshi

³⁴ «Ўзбек тили ва адабиёти», журн., 1971, 6-сон, 5 -бет.

yashaydi» asari revolyutsiey-demokratlar uchun, ilg'or fikrdagi rus yoshlari uchun katta bir dastak kuchli bir kurol bo'ldi. TSenzura Nekrasovning bu asarini taqiqlab, uning ayrim joylarini uchirib tashladi, hatto «Olamga tatirlik bazm» bobini shoir xayotlik chog'ida chop ettirishga ruxsat etmadi.

Nekrasovning bu o'lmas, durdona asarida original, yorqin obrazlar galereyasi mavjud, ular hali ham nur kabi yorqirab turibdi. Shoir Mirtemir shu obrazlarni xuddi asl nusxadagi kabi O'zbekchada ham berish uchun katta g'ayrat va jasorat ko'rsatgan.

So'zimizning dalili uchun dastavval, qaxramonlar portretining berilishini ko'zdan kechiraylik yettita muvaqqat qarzdor dexqon: Roman, Dem yan, Luka, Ivan, Mitrodor, Paxom, Prov «Rusiyada kim xushvaqt, dorilamon yashaydi» deb baxslashib, yulda ketaturib kech qayti, popni ko'rib qolishadi va yulini tusib, ta`zim qilishadi. Pop chuchib ketadi, shunda dexqonlardan biri -Luka uni yupatadi.

-Nebos ! Mo' ne grabiteli!-Skazal
popu Luka. (Luka-mujik
prisadisto'y, S shirokoy
borodiheyu. Upryam, rechist i glup.
Luka poxoj na mel nitsu: Odnim ne
ptitsa mel nitsa, Chto, kak ni
mashet Nebos , ne poletit)³⁵.kro'l
yami,

Luka popga dediki: -Qurkma! Biz
talanchimas. (Asli Luqaning o'zi
Rulabir va sersoqol. Sarkash, sergak
telbaroq Bakaloq kelgan dexqon.
Tegirmonga uxshaydi: Tegirmon
kush emasda qanot qoqsa ham o'zi
Uchgan emas hech kachon!)

³⁵ Н. А. Некрасов. Сочинения, т. 3, М., Изд-во «Правда», 1954, стр. 14.

Bu yerda Nekrasov kavs ichida bir necha satrda mujik Luqaning portretini chizib, uning harakterini ko'rsatadi: «Prisadisto'y -gulabir», «S shirokoy borodiheyu-sersokol», «Upryam, rechist i glup-sarkash, sergak telbaroq», bo'lardan tashqari Luka tegirmonga o'xshaydi—«Luka poxoj na mel nitsu» deyiladi. Mana bu keltirilgan misolda ko'z oldingizda jonli bir mujikning portreti gavdalanadi. Tarjimon Nekrasov buyoqlariga mos bo'yoqlarni, ranglarni topib bera olgan. Mana shu kabi jonli qilib chizilgan portretlar ushbu asarda ko'p, biz ulardan yana bir-ikkitasini Mirtemir tarjimasida qanday berilganini ko'rsatmokchimiz.

Nekrasov barin portretini

shunday tasvir laydi:

Vdrug troyka s kolokol chiqom
Otkuda ni vzyalas , Letit! A v ney
kachaetsya Kakoy-to barin
kruglen kiy, Usaten kiy, po'zaten
kiy, s sigarochkoy vo rtu.

Mirtemir tarjimasi:

Kung'irog'i jaranglab Troyka uchib
kelar! -Unda esa, qandaydir, O'zi
yumaloqqina, Muylovi shopdakkina,
Qorni ardarilgunday, Sigarani tutib,
Bir To'ra kelar edi

Qanday go'zal tarjima! Qulog'ingiz tagida hamon troyqaning qo'nrirog'i «ding-ding» lab jaranglab kelishi eshitiladi, unda yumaloqqina (kruglenkiy), muylovi shopdakkina (usaten kiy) semiz barinning sigara chekib utirgani ko'z oldingizda namoyon bo'ladi. Mirtemir Nekrasovning har bir o'xshatish, sifatlashiga mos keladigan so'zlarni topib ishlatadi. «Po'zaten kiy» so'zini har xil tarjima etish mumkin. «Qorindor», «Qorni katta», «Meshqorin», «Qorni chiqqan», «Gupchak qorin» va xokazo. Lekin bu yerda Mirtemir «qorni ag'darilgunday» deb to'g'ri tarjima qilgan.

Mana, dehqon ayoli

Matrenaning portreti:

Matrena Timofeevna,
Osanistaya jenhina,
Shirokaya i plotnaya.
ug'et tridtsati vos mi.
Krasiva; volos s prosed yu,

Mirtemir tarjimasi:

Matrena Timofeevna,
O'ttiz sakkiz yoshida,
Keng umrov, pishiq tikin,
Rosa komatli xotin,
O'zi go'zal, sochida

Glaza bol shie, strogie,
Resnitso' bogateyshie,
Surova i smugla.
Na ney rubaxa belaya,
Da sarafan koroten kiy,
Da serp cherez plecho¹.

Ko'rinadi oz-moz oQ
Ko'zlari katta, jiddiy,
Kipriklar o'zun, quyuQ
O'zi bugdoy rang, sipoh...
Egnida ok kuylak-u
Klskagina sarafan,
Elkasida uroq bor³⁶.

Mazkur tarjimaning har bir satri originalga to'g'ri keladi. U ruschasida o'n bir satr bo'lsa, O'zbekchasida ham o'n bir satr, tarjimon o'zidan biror narsa qo'shmagan va olib tashlamagan. Gap faqat satrlarning to'g'ri bo'lishi ustidagina emas, balki ularning asl nusxa mazmunini xuddi o'ziday chiroyli va badiiy qilib berilishidadir. Matryonaning portreti O'zbek shoirining bo'yoqlarida ham yorquin va jonli bo'lib chiqqan. Qomati kelishgan, chiroyli, mexnatsevar dexqon ayolining surati ko'z oldingizda gavdalanadi. Nekrasovning Matryonaga bergan sifatlari ham tarjimada xuddi o'ziday aks etgan: «Osanistaya, shirokaya-keng, umrov», «Plotnaya-pishiq tikin», «Krasivaya -o'zi go'zal», «Surova i smugla -o'zi burdoy rang, sipo:k» va boshqalar.

Mirtemir kishilar suratini chizishda O'zbek tilining rang-barang bo'yoqlarini tanlab ishlatadi, mana shuning o'zi har bir klassik asarni O'zbek tiliga yaxshi tarjima etish mumkinligidan dalolat beradi. Tarjimon, Ayniqsa, qutlug' rus baxodiri-Saveliyning portretini mohirona chizib bergan. Mirtemir «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» asarini tarjima etarkan qattiq ta'sirlanib chiroyli bir she'r yozadi. Unda paxlavon Saveliyning ham tilga olib utadi, rus she'rining otaxonini unga uxshatib: «Saveliy qiyofada o'zi bo'ldi namoyon-rus she'rining bobosi» deb ta'riflaydi.

Saveliy yoshligidayoq kuchli, jasur, kurqmas, azamat bo'lib o'sgan, ayiq bilan olishib, uni yenggan. Uta zolim ish boshqaruvchi Fogelni tiriklayin yerga kumgan, buning uchun Sibirga badarg'a qilingan, u qatorgada qo'l-oyog'i kishanda yigirma yil ishlaydi, ne-ne azob-uqubatlarni boshidan kechiradi. Jazo muddatini tugatib uyiga keladi, yoshi yuzdan ohsa ham xali tetik

³⁶ Н. А. Некрасов. Сочинения, т. 3, стр. 83. Н. А. Некрасов, Русияда ким яхши яшайди, 70-бет.

Mana Saveliyning portretini kelini Matryona shunday ta`riflaydi:

S bol shuhey sivoy grivoyu,
Chay, dvadtsat let nestrijenoy, S
bol shuhey borodoy,
Ded na medvedya smaxival,
Osobenno kak iz lesu,
Sognuvshis , vo`xodil.
Dugoy spina u dedushki.
Snachala vsyo boyalas ya,
Kak v nizen kuyu gorenku Vxodil
on: nu, raspryamitsya? Prob yet
do`ru medvedihe
V svetelke golovoy!

Da raspryamit sya dedushka
Saveliy ne rasserditsya,
Uydet v svoyu svetelochku.
Chitaet svyattso`, krestitsya,
Ne mog: yemu uj stuknulo,
Po skazkam, sto godov.
Ded jil v osoboy gornitse,
Semeyki nedolyublival,
V svoyu ugod ne puskal;
A ta serdilas , layalas ,
Ego «kleymentum, katorjno`m»
Da vdrug i skajet veselo:

«Ehtimol, yigirma yil
Kaychi, ustara kurmay,
Bir kuchok bo`lib usgan,
Sokolu, o`zun sochlik
Yoldor bobo -Ayniqsa-
o`rmonzordan engashib
Chiqqanida, ayiqqa
o`xshab ketardi bir oz.
Beli-dugaday egik
Avval qurqib yurdim men,
O`z pastak xonasiga
kirganda -uyladimki

«Kleymeno'y, da ne rab»³⁷.

Chestil rodnoy so'nok

Birdan kaddin ko'tarib, Ne b ular deb chuchirdim! Men yotgan shu xonaning Devoriga bosh urib Tuynuk ochsa bu ayiq Lekin bobo bechora qaddin tiklay olmasdi, Aytishlariga ko'ra, yuzga kirgan edi chol, yashardi xos xonada, Farzandlarin suymasdi, O'z uyiga qo'ymasdi;

Bola -chakasi bo'lsa,

Achchig'iga chidalmay,

Itday kopishar edi.

«Tamga bosilgan, surgun,

Qarg'ish tekkan, badnom chol!»

Deb sukardi o'z ug'li,

Ya`ni mening kaynotam,

Saveliy achchig'lanmas,

O'z xonasiga ketar,

Injil uqir, cho'qinar,

Ham qo'vnab derdi birdan:

-Tamga bosilgani rost,

Shukurki, qo'l emasman!»

Mazkur tarjimada baxodir Saveliyning portreti To'g'ri va aniq berilganu, lekin satrlar soni asl nusxaga Karaganda ancha oshib ketgan, asl nusxada 26 satr bo'lsa, tarjimada 37 satr bo'lgan. Demak o'n bir satr ko'p! To'g'ri, satrlar soni tarjimada oshishi mumkin, bunday xollar boshqa she`riy tarjimalarda ham ba`zan uchrab To'ra - di. Ammo bu qadar ko'p emas, un-un besh satrda bir satr oshishi mumkin, lekin bu ham oshiqchalik qiladi, boringki, un satrga bir satr oshganda ham yuz satr she`rda un satr

³⁷ Н. Л. Некрасов. Сочинения, т. 3, стр. 97. Н. А. Некрасов. Русияда ким яхши яшайди, 81—бет.

oshishi mumkin, bu yerda 26 satrga 11 satr oshib ketgan. Chunki, Mirtemir asarni to'qqiz hijali vaznda emas, yetti hijoli vaznda tarjima qilgan. Ba`zan asl nusxadagi ikki satr tarjimada uch satr bo'lgan, chunki bu kichiq vazn ichiga asl nusxadagi mazmuni to'la sigdirish qiyin. Agar oshib ketgan satrlarni sanasaq ular uch yuz-uch yuz ellikka yetadi. Masalan, birinchi kismning birinchi va ikkinchi bobidayok 147 satr oshib ketgan.

Agar Mirtemir ushbu dostonni to'qqiz hijoli vaznda tarjima qilganda satrlarning soni oshib ketmas edi. Masalan, shoira Zulfiya Nekrasovning «Knyaginya Trubetskaya» poemasini to'qqiz hijoli vaznda tarjima qilib, biror satrni tushirib qoldirmagan va ko'paytirmagan ham (bu asar tarjimasi zqakida keyinrok to'xtab utamiz). Lekin bundan kat'i nazar yuqorida keltirilgan parchada

Mirtemir Saveliyning obrazini xuddi asl nusxadagiday chizib bergan. Masalan: «Ded na Medvedya smaxival—bobo... ayiqka uxshab ketardi», «Dugoy spina u dedushki-beli dugaday egik», «Prob yet duru medvedixe v svetelke golovoy-devorga bosh urib, tuynuk ochsa bu ayiq» va hokazolar.

Endi, yana bir portret-pomeshchik obrazining tarjimada berilishiga diqqat qilaylik Nekrasov kambag'al mexnatkash dehknlarning vakillari Matryona bilan Saveliy portretlarini chiroyli bo'yoqlarda, mehr-muxabbat bilan, iliq tasvir etib, ularning oliy, insoniy fazilatlarini ko'rsatsa, barin, pomeshchik poplarning portretlarini xajviy shaklda jirkanch, xunuk xayvoniy xislatlarga ega bo'lgan tarzda ko'rsatadi. Shu bilan shoir o'zini mexnatkash xalq tomonida eqanini ochiq-oydin bildiradi. Tarjimon ham Nekrasov chizgan salbiy obrazlarning portretlarini aynan beradi: Bir misolga murojaat qilaylik Nekrasov johil zolim pomeshchik Utyatinning portretno'y shunday tasvir laydi:

Da staro'y starichok: Xudoy! Kak zaytso' zimnie, Ves bel, i shapka belaya, Vo'sokaya, s okolo'shem Iz krasnogo sukna. Nos klyuvom, kak u yastreba, Uso' sedo'e, dlinno'e I—razno'e glaza: Odin zdorovo'y -svetitsya, A levo'y -mutno'y, pasmurno'y, Kak olovyanno'y grosh!

Rus dexqoni Saveliy bilan zolim pomeshchik ning tasvir ida qancha farq bor. Shoir rus baxodiri Saveliyni oliy fazilatga ega bo'lgan inson, torni talion kiluvchi, qari gan vaqtida ham tetiq bakuvvat qilib ko'rsatsa, knyaz Utyatinni badjaxl, mukkeygan,

oriq ko'zlari xunuq kovogi solingan xolda tasvir laydi. Mana o'sha portretning o'zbekcha nusxasi:

Munkillab qolgan bir chol:	Muylovlari oq o'zun,
ozg'in! qish quyonidek—	Ko'zlari esa har xil:
Engil-boshi oq hatto—	Bir ko'zi sor-yiltirar,
Shapkasi ham oq baland,	Chap ko'zi esa-xira,
Jiyagi kizil movut. ³⁸	Bulutli, beharakat,
Kayrilma burni bo'lsa,	Kalay chaqaning o'zi! ³⁹
Xuddi kirgiy tumshug'i,	

Nekrasov pomeschik suratini berishda «grosh» (chaka) so'zini bekorga ishlatmagan, ruschada «Ni v grosh ne stavit » degan maqol bor, uning ma'nosi «sarik chakaga ham arzimaydi». Ushbu makol pomeschik Utyatinga ham alokador, uch pulga qimmat bo'lgan shaxs. Yuqorida keltirilgan she'riy parchaning tarjimasiga e'tiroz bildirish qiyin. Unda uxshatish, sifatlash, majoz, istioralar tut-ri berilgan.

Tarjimonning yaxshi fazilatlaridan biri shundaki u oddiy tarjimon emas, u tadqiqotchi ham. Nekrasov tasvir etgan davr haqida juda ko'p narsalarni o'qigan. Tarixiy voqealarga, siyosiy, ilmiy, etnografik atama, lug'atlarga izox bergan, sharhlagan.

Nekrasov serzavq ixtiros bilan tasvir etgan obrazlari ichida rus ayoli Matryona, rus baxodiri Vasiliy, oqsoqol Vlas, pomeschik Utyatin va pop alohida ajralib To'ra di. Asarda ularning harakteri yaqqol va bo'rttirib ko'rsatilgan, har qaysisi o'z individual tilida gapiradi, ularni bir-biridan ajratadigan farqlar bor. Hatto ikki oqsoqol: Vlas bilan Klinning so'zlari bir -biriga o'xshamaydi. Harakter, fe'l-atvori, turqi boshqa-boshqa. Bo'larni tarjimada berish nihoyatda qiyin, har qaysi tarjimon ham buning uddasidan chiqavermaydi. Mirtemir o'zining boy tajribasi, talanti, san`atini shu tarjimada to'laligi bilan namoyon qilgan. Masalan, popning nutki tarjimasiga e'tibor berayliq

Asl nusxasi:

³⁸ Кизил мовут жияклик бсгланд, оқ қалпоқ-дворянлик белгиси қисобланадиган махсус шапка (таржimon изохи).

³⁹ Н. А. Некрасов, Русияда ким яхши яшайди, 1 19-бет.

Derevni nashi bedno'e,
 A v nix krest yane xvoro'e
 Da jenhino' pechal nitso',
 Kormilitso', poilitso',
 Rabo'ni, bogomolitso'
 I trujenitso' vechno'e,
 Gospod , pribav im sil!
 S takix trudov kopeykami
 Jivit sya tyajelo!
 Staruxa, mat pokoynika.
 Glyad , tyanetsya s kostlyavoyu,
 Mozolistoy rukoy.
 Dusha perevorotitsya,
 Kak zvyaknut v etoy ruchen ke
 Dva medno'x pyataka!
 Konechno, delo chistoe-
 I podderjat v ostavshixsya
 Popning bu so'zlaridan ichki tuygusi, psixologiyasi ochiq;

Sluchaetsya, k nedujnomu
 Pridesh : ne umirayuhiy,
 Strashna sem ya krest yanskaya
 V tot chas, kak yey prixoditsya
 Kormil tsa poteryat !
 Naputstvuesh usopshego
 Po mere sil staraesh sya
 Dux bodr! A tut k tebe
 Za trebu vozdayanie;
 Ne brat —tak nechem jit ,
 Da slovo utesheniya
 Zamret na yazo'ke,
 I slovno kak obijenno'y
 Uydesh domoy... Amin ...

ko'rinib To'ra di. U qishloqlardagi deqkonlarning ayanch hayotini ayta turib, yana baribir och ko'zligini qiladi va o'z harakatini oklab «bu xdlol sadaka, duo qilganim uchun olayapman» deb barona topadi, Hatto xayr -sadaqaning oz bo'lganiga ranjiydi. Popning so'zlari garchand tarjimaga osonday tuyulsa qam uning so'z - iboralari juda murakkab, har birini uylab, ulchab berish kerak Tarjimon «etti ulchab bir kes» degan makolga amal qilgan, albatta. Mana o'sha pop nutqining tarjimasi:

Kishloqlarimiz kashshoq
 Dehkonlar unda nimjon.
 Xotinlar munglug', notob,
 Bokuvchi, emizuvchi,
 O'lganga o'qib duo,

Qolgan larning kunglini
Yupatishga tushasan.
Shu maxdl rahmatlikning
Churilar, taqvodorlar,
Mangulik jafokashlar,
Mangulik zaxmatkashlar,
Xudoyo, o'zing kulla!
Shunday og'ir mexnatdan
Tiyin-tiyinlar yig'ib,
Yashamoq juda qiyin!
Ba`zan kasal yoniga
Borsang: o'ladigan-mas,
Uy boshligidan juda
Bo'layotgan oila –
Dexqonning xonadoni
Undan yana kurkinchrok!
Sochlari oq onasi
Mexnatda qadoq kulin
O'zatadi sen tomon.
Qo'lida jiringlaydi
Ikkita bir miriliq
Xiqildokdan to'tganday!
To'g'ri, xalol sadaqa –
Duong uchun beripti,
Olmasak choramiz yo'q
Shunda bir so'z deyolmay,
Tiling tqotib qoladi.

O'z-o'zingcha o'qinib,
Uyga junaysan... omin...⁴⁰

Mazkur tarjimani asl nusxasiga chogishtirib uqigan zqar bir kitobxon uning to'g'ri, originalga monand eqanini tez bilib oladi. Popning harakteri becam-kust berilgan. «Gospod , pribav im sil!—Xudoe o'zing kulla», «Naputstvuesh usopshego-ulganga o'qib duo», «konechno, delo chistoe-za trebu vozdayanie-to'g'ri, xdlol sada -ka-duong uchun beripti», «i slovno kak obijenno'y uydesht domoy... Amin ...—o'z-o'zingcha o'qinib, uyga junaysan... omin», bu misollar popning individual tilini, hususiyatini ochiq-oydin ko'rsatadi. Qizigi shundaki, pop «og'ir mexdshtdan tiyin-tiyinlar yigib yashamok juda qiyin» deydi-yu, yana bolasi ulgan kashshok kampir -ning kuliga karaydi, «kak zvyaknut v etoy ruchen ke -kulida jiringlaydi», «dva medno'x pyataka-ikkita bir mirilik» pulni ham oladi, «olmasak choramiz yo'q» (ne brat -tak nechem jit), -deydi. Tarjimon shu keyingi jumlaning ma`nosini To'g'ri tarjima etgan bo'lsa ham uni yana burttiribrok berishi kerak edi, masalan: «Olma -sak choramiz yo'q yashashimiz qiyin» deb tarjima etsa asl nusxaga yana yaqin bo'lardi.

Knyaz Utyatinning harakteri, fe`l-atvori popdan oshib to'shadi. U kadimiy pomeschchik uning kulida ming-ming gektar yer, xisobsiz qo'l dexqoni bo'lgan, 1861 yil isloxotidan so'ng dexqonlari ozod kilinsa ham buni tan olmaydi, hamon ularni o'z yerida ertadan -kechgacha ishlashga majbur qiladi. Pomeschchik ning gaplari dag'al, ko'pol, arzimagan narsaga dexqonlarni xakorat qiladi. Qishloq oqsoqoli «yangi qoidaga karasak xaftada uch kunimiz To'ra niqi, uni ishladiq endi Xo'jayin ning muddati tugay deb qoldi...» deganida pomeschchik Utyatin zaharxanda kulib, dashnom qiladi:

Pomehik vdrug osklabilnya

I nachal xoxotat .

«Xa-xa! Durak!.. Xa-xa-xa-xa!

Durak! Durak! Durak!

Chol og'zi qulog'ida,

Kula boshladi birdan:

Ha -ha! ahmok! Ha -ha -ha!

Aqmoq! Aqmoqsan! Aqmok!

⁴⁰ Н. А. Некрасов. Русияда ким яхшн яшайди, 18-бет.

Pridumali: gospodskiy srok!	Xujayin muddati-mish!
Xa-xa... durak! Xa-xa-xa-xa!	Ha-ha! Ahmok! Ha-ha-ha!
Gospodskiy srok-vsya jizn raba!	Xo'jayin ning muddati-
Zabo'li, chto li, vo':	Qullarning umriga teng?
Ya bojieyu milost yu,	Esingizdan chiqdimi:
I drevney tsarskoy gramotoy,	Tangrining inoyati.
I rodom i zaslugami	Kddimgi shoq yorliri,
Nad vami gospodin!.. ¹	Ham zotim, xizmatim -la
	Men sizga qukdorman!.. ²

Yaxshi tarjima, lekin beshinchi satrdagi «Pridumali: gospodskiy srok!» jumlasini: «Xo'jayin muddatini uylab topishipti» yoki «Uylab topishipti: Xo'jayin muddatimish!» deb tarjima qilinsa bo'lardi, Lekin bu o'zun jumla she'riy qolipga sig'magani uchun tarjimon «Xo'jayin muddatimish» deb yaxlit va ixcham tarjima qilgan, bu uning mazmuni, ruhini ko'zgudek aks ettirgan. Huddi shu kabi «gospodskiy srokvsvya jizn raba!» jumlasini «Xo'jayinning muddati-qullarning umriga teng!» deb tarjima kilinishi ham tarjimonning maxoratidir.

Mirtemir knyaz Utyatinning baqirib-chaqirib: «nad vami gospodin!» deb aytgan so'zlarini «men sizga xukmdorman!» tarzida ugirishi ham ayni muddao! Mazkur jumlada «men» olmoshini, albatta, ishlatmoq kerakligini Mirtemir yaxshi bilgan. Qo'yidagi: «Tangrining inoyati-bojieyu milost yu», «kadimgi shox yorlig'i-i drevney tsarskoy gramotoy» satri tarjimasini Mirtemirning qalami naqadar o'tkirligidan darak beradi.

Nekrasov pomeschchik Utyatinning harakterini tasvir lashda zolim zamindor, zodagonlarga xos bo'lgan hususiyatlarini bir-bir ipga tizadi. Mirtemir san'atkor-tarjimon sifatida ularning birini qoldirmay, aynan, asl nusxaga mos qilib beradi. Ana shuning natijasida Utyatin obrazi o'zbek kitobxoniga ham yaqqol ko'rinadi.

Rostdan: raso bir soat	Kengayib ketardi-yu,
O'zoq gap sotdi rirrom,	Xuddi ukki ko'ziday,
Tilin to'xtatolmasdi:	Parrak kabi tinmagur,

Sachrardi tupuklari,	Ungu ters aylanardi,
Jovrardi, ushkirardi!	Asrlar buyi ezgu-
Shu nqadar xit ediki,	Dvoryan xuquqdarin,
Ung ko'zi kosasidan	K>ilingan xizmatlaru,
Chiqib ketguday bo'lar,	Eski -tuski otlarni
Chap ko'zi yun-yumaloq	Pomeshchik vaysar edi ⁴¹ .

Viz bu parchani asl nusxa bilan chagishtirib chiqqanimizda, uning to'g'ri va yaxshi tarjima qilinganligini aniqladiq Masalan, «yazo'k yego ne slushalsya -tilin to'xtatolmasdi», «starik slyunoyu bro'zgalsya-sachrardi tupuklari», «vertelsya kolesom-parrak kabi tinmagur» va boshqalar asl nusxaning o'zginasidir.

Nekrasov Matryonaning portretno'y naqadar iliq samimiy muxabbat bilan chizgan bo'lsa, uning harakero', yurish-turishi, fe'l-atvorini ham shunday zavq-shavq ; bilan tasvir laydi. Mariya yosh vaqtdan mexnatga beriladi, turt yoshidan boshlab oilaga dastyor bo'ladi, yetti yoshida, «sigirini podadan xaydab keladi», otasiga dalaga nonushta olib boradi, urdaklarni bokadi, urchuq yigirib, kushiq aytib tonglar otkizadi. Xusni kamolatga yetganda norrul paxlavon, sochlari kungir, muloyim so'zliq kurkam yigit Filippin yaxshi ko'rib qoladi: Matryona sevgan iigitiga karab deydi:

- 1 «To' stan -ka, dobro'y molodets,
- 2 Protiv menya pryamexon ko,
- 3 Stan na odnoy doske!
- 4 Glyadi mne v ochi yasno'e,
- 5 Glyadi v litso rummyanoe,
- 6 Podumo'vay, smekay:
- 7 Chtob jit so mnoy-ne kayat sya,
- 8 A mne s toboy ne plakat sya...

⁴¹ М. А. Некрасов. Русияда ким яхши яшайди, 134-бет

9 Ya vsya tug takova!»⁴²

1. «Turgin, xay yaxshi yigit,
2. Karshimda To'g'ri, raso,
3. Buyim buyingga tengdur!
4. Tiniq ko'zlarimga boq
5. Olmaday yuzimga boq
6. Esingni bir yerga yig':
7. Keyin o'kinib yurma.

8. Qo'sha -qari mok uchun,
9. Men senga yor tutindim,
10. Ko'zimga yosh ilmagin...
11. Mening boru yug'im shu;
12. Dunyoda armonim shu!»

Yuqorida keltirilgan misolimizda tarjimon Matryonaning sevgisini, uning yoriga aytgan so'zlarini bekam-ko'st beradi. Rus tekstiga mos so'zlarni muvaffaqiyatli ishlatadi. Masalan.

1 To' stan -ka, dobro'y molodets,
3 Stan na odnoy doske!
6 Podumo'vay, smekay
9 Ya vsya tut takova!

1 Turgin, xay yaxshi yigit,
3 Buy im buyingga tengdur!
7 Esingni bir yerga yir.
11 Mening boru yutim shu.

Mazkur asar tarjimasining sifatini tekshirishdan ilgari shuni aytish kerakki, filologiya fanlari doktori, prof. Hodi Zarifov: «Bir mujikning roz taqsim qilg'oni» hikoyasining zamirida Sharq xikoyalaridagi syujet yotadi. Bunday syujet kadimiy kulyozmalarda ko'p uchraydi. U rus adabiyotiga Sharq ; adabiyotidan o'tgan bo'lishi mumkin», degan fikrni bayon qilgan edi. Darxaqiqat «Bir mujikning roz taqsim qilg'oni» hikoyasining syujetiga yaqin syujet kadimiy kitoblarda bor. Hatto fors tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan «Duzd va kozi» («O'g'ri va kozi») kitobida ham uni uchratasiz. Unda g'oz taqsim kilinmasdan tovuq taqsim qilinadi. Mana usha hikoya:

«Andin so'ngra zamoni o'tib erdi kozining xotini eshikdan kirib keldi, bo'larning oldlarig'a dasturxon yozib tovuqni(ng) kabobini qo'ydi. Qozi dilida aytdi: Hech mundin yaxshi maslaxat yo'qturki bul tovuqni taqsim qilmoqni o'g'riga xavola qilsam, toki agar yaxshi taqsim qilolmasa, ani iza berib manfa`l va majmul qilsam».

Qozi aydi: «Ey shayx bu tovuqni qismati sizdin bulsun, taqsim qiling». O'g'ri qabul qilib tovuqni qo'liga olib, pora-pora qilib boshini qozining oldiga qo'ydi va gardanini xotunini(ng) oldiga qo'ydi va ikki kanotini ikki o'g'lini(ng) oldiga quydi va tanasinn o'zini(ng) oldiga kuydi va aydi: «Bismillo, olinglar va surati ushbudir».

⁷³ Хрестоматия («Муаллим ус -соний»), 1903, 50-бет.

Qozi aydi: «Ay tarror sanga taqsim sahih kilg'il deb aydim, bu nechuk taqsimdur?». O'g'ri aydi: «Avval boshini sening oldingga qo'ydimki, bu uyning boshligidursan va gardanini xotuningni oldiga qo'ydimki, xotun bamisoli gardan, boshga yaqin bo'lgandek erga yaqin bulug' va ikki kanotini farzandingning oldiga qo'ydimki, farzand otani(ng) qanoti bulur va tanasini o'zum oldinga qo'ydimki, men sizlarga mexmondurman». Qozi xayron bo'ldi va xech javob aytolmadi»⁷⁴

Agar bu hikoyani «Bir mujikning g'oz taqsim qilg'oni» bilan solishtirsak syujetlaridagi yaqinlikni ko'ramiz. Lekin L.N. Tolstoy asari ham mazmun, ham g'oyasi jihatidan tamom ajralib turadi. Tolstoy Sharq adabiyotidagi syujetdan foydalanarkan, unga ijodiy yondashib, o'zgarishlar kirgizib yangi bir badiiy asarni vujudga keltirgan. Tolstoyning xikoyasi nihoyatda sodda va ravon tilda badiiy maxorat bilan yozilgan, unda mujik obrazi yaqqol ifodalangan, uning o'tkir akli, zakovoti bo'rttirib ko'rsatilgan. Mazkur hikoyani o'zbek tiliga tarjima qilgan tarjimon ham asarinng mazmun, g'oyasi, ruhi va badiiy usullarini to'g'ri bergan, unga tarjimon o'zidan hech narsa qushmagan va biror narsani olib tashlamagan. Mana ba`zi bir misollar:

L. Tolstoyda:

Barin prinyal gusya i govorit

mujiku: «Spasibo, Mujik tebe

za gusya; tol ko ne znayu, kak mo'

tvoego gusya delit budem. Vot u

menya jena, dva so'na da

dve docheri. Kak bo' nam razdelit

gusya bez obido'!»

II. Poslal barin za bedno'm mujikom i velel delit .

O'zbekcha tarjimasi:

I. To'ra g'ozni olib, mujikka aytdi: olloh rozi bo'lsin olib kelgan tor -tingga,

⁷⁴ («Гаржимаи «Дўзд ва Қози турки ва тасвир») ЎзР ФА Беруний номидаги Шарқшунослик институти фонди, Инв. № Г26 27-бет.

ammo roz bitta, bizlar ol-tita, chunonchi: o'zim, xotunim, ikki urlim va ham ikkita kizim, kandor qilib bul g'ozni bemalol taqsim qilsa k ekan, -dedi.

P. Oxiri To'ra kambag'al mujikni cha -kirtirmokka buyurdi rozlarni taqsim kilmok uchun.

III. Stal bogato'y mujik dumat i
nichego ne pridumal.

III. Boy mujik uyladi -uyradi, kandok
qilib bo'lishni hech ilojini to-
polmadi.

Birinchi misoldagi «spasibo» so'zini tarjimon «Ollo rozi bo'lsin» deb tarjima qilgan, buning o'rniga «rahmat» yoki «tashakkur» kabi ekvivalentlarni ishlatishi mumkin edi, boshqa jummalarni tarjimon asl nusxaga monand, aynan bo'zmay tarjima qilgan, barinning so'zlari, kambag'al va boy mujikning harakteri to'g'ri berilgan.

Tarjimada ba'zi bir jo'z'iy xatolar ham uchraydi, masalan, ayrim jumlarlar cho'zilib ketgan, uchinchi misoldagi «kandog' qilib bo'lish» degan ifoda ortiqcha. Ammo bu kabi jo'z'iy kamchiliklarga qaramay bu tarjima o'z davrining yaxshi namunalaridan biridir.

Ali Asqar Kalinin 1907 yidda nashr qilgan xrestomatiyasiga bir qancha o'zgarishlar, stilistik to'zatislar kirgizdi. Misol uchun «Bir mujikning g'oz taqsim kilg'oni» hikoyasidagi o'zgarishni ko'rayliq

«Bir kambag'al mujik bor edi, ul mujikning bolalari ko'p erdi, mol zotidan birgina g'ozi bor erdi. Bir kuni mazkur mujik yegani ovqat topolmay qolib, o'shal yolg'o'z g'ozini ushlab, suyub, pishirub bir To'raga peshkash, ya'ni tortiq; qilib olib bordi». Bu jumlada uchta o'zgarish bor:

- 1) birinchi jumladan keyin «ul mujikning» so'zi qo'shilgan ;
- 2) uchinchi jumlanng boshidagi «ammo» so'zi olib tashlangan;
- 3) turtinchi jumladagn «topolmasdan» degan so'z o'rniga «topolmay qolib» so'zlari qo'shilgan . Bunday stilistik o'zgarishlar boshqa xikoyalarda ham uchraydi.

Tolstoy o'z xikoyalariida mujikni uddaburon, tadbirli, aklli, qiyin xollardan tez chiqib ketadigan kishi sifatida tasvirlagan, tarjimonlar ham huddi shu obrazni

o'zbek tilida bera olganlar, mujikni tasvirlash uchun unga yarasha so'z, tasvir vositalarini topa bilganlar.

«Xudo xaqni ko'radi-yu tezda aytavermaydi» xikoyasi tarji-masining sifati boshqa xikoyalardan tamom ajralib To'ra di, mazkur tarjimada raliz va sun`iy to'zilgan jumlar kam, tarjimon asarning syujeta, mazmuni, qaxramonlarning dialogiga va boshqa -larga ahamiyat berib, ruscha originaliga maksimal yaqinlashtirgan. Xikoyaning asosiy qaxramoni Aksenovning xali gardaniga tuxmat tushmasdan oldin xotini bilan osuda hayot kechirgai paytdagi harakteri bilan buxton natijasida katorgaga borganidagi harakteri o'rtasida farq bor. Tarjimon shu farqni bilib, uni o'zbek tilida to'g'ri bera olgan. Masalan, Aksenov yarmarkaga ketayotgan paytida xotini: «Ivan, bu gal borma» degan so'ziga eri xazillashib javob beradi:

«Aksenov posmeyalsya i skazal -To' vse boish sya, kak bo' ne zagulyal ya na yarmarke».

«Aksenov kulib turub aytdi: -Sen bekorga qo'rqaverasan, Meni yarmarkada tomosha qilib ketmasin, deb».

Ko'rasizki, bu yerda intonatsiya ham saqlangan. Mana Aksenov tuxmat balosiga duchor bo'lib, qatorgada azob chekishi va undagi harakterning o'zgarishini ko'rsatuvchi misol:

«V Sibiri, na katorge Aksenov jil dvadtsat shest let. Volosa yego na golove stali belo'e, kak sneg, boroda otrosla dlinnaya, uzkaya i sedaya. Vsya veselost yego propala. On sgorbilsya, stal xodit tixo, govoril malo, nikogdane smeyalsya».

«Sibirda Aksenov 26 yil istiqomat qilib turdi. O'zi kartaydi, chochlari oppoq qordek bo'ldi. Barcha ilgarigi vaqtxushligi ketdi. Yursa yag'rini bukchayib, oyoklarini oxista-oxista bosib badalida bir martaba vaqtixush yuradurg'on bo'ldi. Ilgarigidagi xursandlikni tashladi, shuncha yilning bo'lib kulmadi».

Tarjimada asl nusxaning ruhi saqlangan, tasvir to'g'ri tarjima qilingan. Bandit Makar bilan gunohsiz qamalgan Aksenov o'rtasidagi dialog tarjimasini

ko'ring: Ruschasi:

-Tol ko molchi, starik ya i tebya vo'vedu. A yesli skajesh - menya zasekut; da i tebe ne spuhu-ub yu.

Kogda Aksenov uvidel svoego zlodeya, on ves zatryassya ot zlosti, vo'dernul ruku i skazal:

— Vo'xodit mne nezachem i ubivat menya nechego-to' menya uje davno ubil»⁷⁵.

O'zbekchasi:

— Endi sen xech kimga aytma, sani ham chiqarib olib ketaman.

Agarda aytsang, seni tirik kuymayman, -uldiraman.

Muni(ng) so'zini eshitib Aksenov achchig'langonidan qaltirab qo'lini Makarning qulidan yulib olib aytdi:

— Endi manga turmani tashlab ketmoqning darkorligi yo'qdir.

Ham sening o'ldiradurg'on vao'uldirmaydurg'oningni darkorligi yo'q.

Sen meni qachon(lar) o'ldirgansan⁷⁶.

Bu tekst tarjimasida ikkita kamchilik bor, biri «uvidel svoego zlodeya» iborasi tarjima kilinmagan, ikkinchisi esa bir jumlada «darkorligi yo'qdur» iborasi ikki marotaba takrorlangan.

Masal janridagi asarlarning tarjimalari ham turlicha, ba`zilari juda yaxshi tarjima qilingan, ba`zilari bir qancha nuqsonlarga ega. Ma`lumki, masal yozish juda ham qiyin, kichik bir asarda katta fikrlar bayon etilishi kerak yaxshi masallar yurakdan umr buyi joy oladi. Tarbiyaning o'tkir kuroli bo'lgan masalni zqar qaysi yozuvchi ham uddalab yoza bermaydi, shuning uchun ham masal yozuvchilar kam. Tolstoy masallari ko'pincha xalq xayotidan olinib, xalq ijodidan foydalanib yozilgan durdonalardir, bo'larni o'zbek tiliga tarjima qilish oson bulmagan. «Xrestomatiya-terma kitob» lardagi Tolstoy masallarining tarjimonlari o'z ishiga kata mas`uliyat bilan karab, ulug' yozuvchining maksad va g'oyasini bo'zmay, sodda tilda tarjima etishga intilganlar. Masalan, «Ikki do'st » tarjimasini ko'rsatish mumkin.

⁷⁵ Л. Н. Толстой. Собр. соч., т. 10, стр. 118.

3.3 L. N. TOLSTOY ASARLARI O`ZBEK TILIDAGI TARJIMALARI BILAN QIYOSLAB O`RGANISH.

Dva tovarisha

Shli po lesu dva tovariha, i vo'skochil na nix medved . Odin brosilnya bejat , vlez na derevo i spryatalsya, a drugoy ostalsya na doroge. Delat yemu bo'lo nechego-on upal nazem i pritvorilsya mertvo'm. Medved podoshel k

⁷⁶ («Туркистон вилояти газети), 1902 йил 2 март.

nemu i stal nyuxat : on i do'shat perestal. Medved ponyuxal yemu litso, podumal, chto mertvo'y i otoshel. Kogda medved ushel, tot slez s dereva i smeetsya: «Nu, chto,—govorit, -medved tebe na uxu govoril?» «A on skazal mne, chto ploxie lyudi te, kodoro'e v opasnosti ot tovarihey ubegayut»⁷⁷.

Ikki do'st

Ikki do'st biri yosh va biri qari o'rmondan utib borayotib erdilar; ittifoko alarning oldilaridan bir katta va kabix surat ayiq chiqti; yosh yigit ayiqni kurub yuldoshini tashlab kohti va bir daraxtni(ng) tepasira chiqib oldi; {qarisi kocho olmay qoldi va ul o'zini yerga tashlab ulgan kishi bo'lib yotti, chunki ayiq ulgan kishiga tegmas emish degan so'zni eshitgani bor ekan.

Ayiq yerda o'zini uluk qilib yotgan kishining yoniga kelib. u yog', bu yog'gini va ham qo'llarini xidlab o'lgan faxm qildi, va ham tegmasdan ketib qoldi; ayiq ketganidan keiin yosh iigit daraxtdin tushub qari kishiga karab «ayiq kuloringga nima pshbir lab ketdi -dedi; qari kishi aytdiki, ayiq menga «yuldoshing ko'p yomon odam ekan, seni tashlab qochti, ba`d mundog' yomon odam bilan xech vaqt safarga chiqmagil» deb qulog'imga shibirlab ketdi,—dedi. Maqol: «xaq do'st boshig'a ish tushganda ma`lum bo'ladur»⁷⁸.

Tarjimada masalning harakteri, mazmuni saqlangan, uni o'qigan kishi «Xaq do'st boshiga, ish tushganda ma`lum bo'ladur» degan xulosani yaxshilab o'zlashtirib oladi. Bu xulosa Tolstoydagi «Ploxie lyudi te, kodoro'e v opasnosti ot tovarihey ubegayut» iborasining ekvivalenta deyish mumkin. Tarjimon Tolstoy fikrini berish uchun xalq matal va makollariga murojaat qilib, to'g'ri qilgan. Lekin bu masal tarjimasida ba`zi bir xatolar bor. O'zbekchasida ikki o'rtoq yoki ikki do'stning birini yosh, ikkinchisni esa qari qilib ko'rsatganki, asl nusxada unday emas. Tarjimon «Delat yemu bo'lo nechego-on upal nazem i pritvorilsya mertvo'm» jumlasini izohlab: «qari qocholmay qoldi va ul o'zini yerga tashlab ulgan kishi bulub yotdi. Chunki ayir; ulgan kishiga tegmas emish degan so'zni eshitgani bor ekan» deb tarjima etadi. Ammo bular masal mazmuniga halaqit bermaydi. Tarjimon bu masaldagi ma`no va maqsadni

⁷⁷ Л. 11. Толстой. Поли. собр. соч., т. 22, стр. 561.

o'quvchiga yetib borsin uchun ko'p yullardan foydalangan va natijada tarjima o'z davrida juda ko'p o'qish kitoblariga kiritilib muvaffaqiyat kozongan.

Yaxshi tarjima etilgan «Otasi bilan bolalari», «Zag'cha Bilan kabutarlar», «Sher, Bo'ri va qam tulki», «Podsho va karchigay», «Tulki bilan tustovuq», «Buru» masallari qaligacha o'z qimmatini yo'qotmagandir. Misol uchun «Olen»-«Bo'g'u» ning tarjimasini ko'rib chiqaylik:

Olen

Olen podoshel k rechke pilit sya, uvidal sebya v vode i stal radovat sya na svoi noga, chto oni veliki i razvilisto', a na nogi posmotrel i govorit: «Tol ko nogi moi ploxi i jidki». Vdrug vo'skochil lev i brosilsya na olenya. Olen pustilsya skakat po chistomu polyu. On uxodil, a kak prishel v les, zaputalsya rogam i za such ya, i lev sxvatil yego. Kak prishlo pogibat olenyu, on g govorit: «To-to glupo'y ya Prokogo dumal, chto ploxi i jidki, te spasali, a na kogo radovalsya, ot tex propal». (L. N. Tolstoy. Poli. sobr. soch., t. 22, str. 30)

Bo'g'u

Bo'g'u soydan suv ichib turub o'zining aksini suvda ko'rub turub shohiga ko'zi tushdi, mazkurning shonalari, ya'ni butoqlari kattaligidan ko'p xursand bulub o'yladiki: «Xo'b badanim joyida, lekin oyoklarim ingichka va nozikdur» deb. Shu asnoda bir tarafdin Sher, o'zini bug'uga qarab tashladi. Bug'u jonining boricha zo'r berib kochib ochiq joyda sherga yetkuzmadi. Nogoh oldidan tukayga uchrab shohidan bir daraxtga ilinib qoldi. Sher orkasidan kuvib yetib bug'uni ushladi. Bug'u ulishini bilib aytdiki: «Ajab man nodondurmankim kimni nochor va yaramassan desam ul manga salomatlik yetko'zdi va kimni yaxshisan deb xursand bo'lsam ziyon ko'rdu va o'lumga muhtalo bo'ldum» deb.

Maqol: kishi o'z ko'shandasini tarbiyat qilur degan so'z to'g'ridur». («Xrestomatiya», ya'ni terma kitob), 1912, 24-bet.)

Mazkur tarjima asl nusxaning mazmunini bersada, unda izoh aralash

⁷⁸ 'Хрестоматия («Муаллим ус-соний»), 23-бет.

berilgan soʻzlar koʻp. Tolstoyning qisqa va aniq jumalari oʻz aksini topa olmagan.

Voqiy xikoyalar tarjimalari ichida yaxshi tarjima etilgan xikoyalardan biri «Podsho va koʻynak» asaridir.

TSar i rubashka

Odin tsar boʻl bolen i skazal: «Polovinu tsarstva otdam tomu, kto menya voʻlechit». Togda sobralis vse mudretsoʻ i stali sudit, kak tsarya voʻlechit. Nikto ne znal. Odin tol ko mudrets skazal, chto tsarya mojno voʻlechit. On skazal: «Esli nayti schastlivogo cheloveka, siyat s nego rubashku i nadet na tsarya,-tsar voʻzdoroveet». TSar i poslal iskat po svoemu tsarstvu schastlivogo cheloveka; no posloʻ tsarya dolgo yozdili po vsemu tsarstvu i ne mogli nayti schastlivogo cheloveka. Ne boʻlo ni odnogo takogo, chtoboʻ vsem boʻl dovolen. Kto bogat, da xvoraet; kto zdorov, da beden, kto i zdorov i bogat, da jena ne xorosha; a u kogo deti ne xoroshi-vse na chto-nibud da jaluyutsya. Odin raz idet pozdno vecherom tsarskiy soʻn mimo izbushki, i sloʻshno yemu kto-to govorit: «Vot, slava bogu,narabotalsya, naelsya i spat lyagu; chego mne yehe nujno». TSarskiy soʻn obrado-valsya, velel snyat s etogo cheloveka rubashku, a yemu dat za eto deneg, skol ko on zaxochet, a rubashku otnesti k tsaryu. Poslannoʻe prishli k schastlivomu chelo veku i xoteli s nego snyat rubashku; no schatlivoʻy boʻl tak beden, chto na nem ne boʻlo rubashki.(L. N. Tolstoy. Poli. sobr. soch., t. 22, str. 578.)

Podshox va kuylak

Bir vaqtda bir podshoh benihoyat kattiq kasal boʻldi va aytdiki: «Xar kimsa mening dardimga davo topsa, anga mamlakatim yarmini berurman». -deb. Koʻp dono tabiblar va olimlar har joydan kelishub maslaxat qildilarki: «Kandokdoru darmon qilurmiz»,-deb, qaysi ilojini topol-madilar. Anda bir xakim dono aytdi: «podsho toʻzaladur basharti bu dunyodagi odamlardan eng baxtli odamni topib ustidan kuylagini yechib olib podshoga kiydursalar» deb. Podsho dunyoyi olamga elchilar yuborib izlatdurdi, xech bir joydin baxtlik odamni topolmadilar. Bir nechanning davlati boʻlsa ham, oʻzi kasal. Tani sihat

bo'lsa mol-dunyosi yo'q. O'zi ham sihat, davlati ham bor, lekin bolasi yo'q. Bular ham bo'lsa xotini yomon, uyi notinch. Xullasi kalom bir narsasi kamlik qilib noroziligi bor. Bir kuni kechqurun podshoni(ng) ug'li bir uychani yonidan o'tib borayotsa kulog'iga ovoz keldiki: «Xudoga shukur ishimni kornim tuydi, emdi dam olurman. Manga mundin boshqa hech narsa darkor emasdur» deb. Podshoni(ng) ug'li ushbuni eshitib ko'p xursand bulub buyurdiki, «kuylagini yechib olib qancha desa ham pulini berib, kuylakni podshoga olib borg'gil» deb. Yuborgan odamlari, baxtlik o'zidan xursand muqtoj emas odamga kelib, ani kuylagini yechmokchi bo'lsalar, kurdilar shundoq kambag'al ekanki, ustida kuylagi ham yo'q ekan.

Maqol: «kambag'alni tuygani boy bo'lgani» («Xrestomatiya», ya`ni terma kitob, 25-bet.)

Bu xikoya tarjimasiga e'tiroz bildirish qiyin (biz xozirgi zamon tarjima printsiplari nuqtai nazaridan kelib chiqib baxo berayotganimiz yo'q), unda asl nusxaning har bir jumlasini o'z aksini topgan. Faqat oxirida tarjimon «Kambag'alning tuygani boy bo'lgani» degan maqolni xulosa tariqasida o'zidan qo'shgan. Inqilobdan avval xrestomatiya -terma, kitob to'zuvchilar birorta original va yoki tarjima qilingan xikoyaning oxiriga xulosa tariqasida o'zbek matal yoki makolini berishgan, bo'larning ba`zilari o'rinli, ba`zilari o'rinsiz bo'lib chiqkan. Mazkur xikoyada ishlatilgan: «Kambag'alning to'ygani boy bo'lgani» maqoli noo'rin keltirilgan, uning asl nusxadagi maqsad va mazmunga hech aloqasi yo'q. «Podsho va kuylak» tarjimasini originalga monand, jummalari aniq va ixcham.

Inqilobdan oldin L.N. Tolstoy asarlarining o'zbek tiliga qilingan tarjimalari o'z davrida katta rol uynagan. Ular xrestomatiya-terma kitoblarga kiribgina kolmasdan, xalq o'rtasida og'izdan-og'izga o'tib yurdi.

L. Tolstoy asarlarining tarjimasini masalasiga kelganda shuni aytish mumkinki, ular nihoyatda ko'p va rang-barangdir. Tolstoyning kichik xikoyalaridan tortib katta-katta asarlari-povest , romanlari birin-ketin tarjima etilib, yuz minglarcha nusxalarda bosila bordi. Chunonchi: 1929-yilda «Kavkaz

asiri» S. Siddiq tarjimasida, 1931 yilda «Fransuaza» Sayd Azim Usmoniy tarjimasida nashr qilindi. «Bazmdan so'ng», «Xikoyalar», «Bolalik», «Akula», «Uch ayiq». «Xodinka», «Xayvonlar haqida xikoyalar», «Masallar» kabi asarlari o'ttizinchi yillarda tarjima etildi. Mohir tarjimon Mirzakalon Ismoilov 1933 yilda L. Tolstoyning yirik asarlaridan «Tirilish» romanini tarjima qildi Bu asar 1934 va 1939 yillarda qayta nashr qilindi. 1936 yilda tarjimon Ibroxim Nazir «Xojimurod» povestini tarjima qilib, uni jurnal va xrestomatiyalarda chop qildirdi.

Kirqinchi yillarda ulug' adibning asarlari ko'plab tarjima etilib, ko'p nusxada bosildi. Masalan: «Sakrash» (M. Zokirova tarjimasida), «Borodino tongi» (Mustafoeva tarjimasida), «Sevastopol xikoyalari» (Mirsaid Siddiq va Nabi Alimuhamedovlar tarjimasida), «Xojimurod» (Uyrun tarjimasida), «Burgut» (O. Raximiy tarjimasida) va boshqalar. 1947 yilga borib adabiyotimizda katta bir voqea ro'y berdi, u ham bo'lsa dunyo adabiyotining daxosi L. Tolstoyning epopeyasi «Urush va tinchlik» romanining birinchi tomi nashr qilindi, uning tarjimoni Atoqli adib Abdulla Kaxxor edi. Bu tarjima A. Kaxxorning ijodiy yutug'igina bo'lib qolmasdan butun o'zbek adabiyotining ham ulkan yutugi edi. Mazkur asarning ikkinchi nashri 1954 yilda chop qilindi. Oradan bir yil o'ttacha 1955 yilda A. Kaxxor bilan Kibriyo Kaxharovanning tarjimasida «Urush va tinchlik» romanining ikkinchi tomi bosilib chiqdi. Qolgan tomlari Kibriyo Kaxharovanning tarjimasida nashr qilindi.

Xotin-qiz tarjimonlar ichida eng ko'p asarlarni tarjima qilgan X. Axrorova niqoyatda katta bir ishga qo'l urdi, u L. Tolstoyning mashhur asarlaridan «Tirilish» romanini tarjima qilib, 1960 yilda nashr qildirdi.

Tarjima ishlari bilan muntazam ravishda shug'ullanib kelgan talantli yozuvchi, «Farg'ona tong otguncha» romanining muallifi Mirzakalon Ismoilov rus adabiyotining faxri L. Tolstoyning jahonga dongi ketgan «Anna Karenina» romanini tarjima qilib, xalqimizga baxosi yo'q xadyani armug'on etdi.

«Anna Karenina» romanining tarjimasida tez va qisqa vaqt ichida tarqalib ketdi; uni hozir magazinlardan topish amri maxol. Mazkur asar tarjimasiga

bo'lgan xalqning extiyojini kanoatlantirish uchun uni ko'p nusxada qayta nashr qilinsa maksadga muvofiq bular edi.

UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSASILAR

Shunday qilib, inqilobdan keyin, dunyo adabiyotining buyuk siymolaridan biri Lev Nikolaevich Tolstoyning katta-katta asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, adabiy xazinamiz boyidi, xalqimiz Tolstoy durdonalari bilan oshna bo'ldi. Tolstoy asarlari o'zbek yozuvchilariga, Ayniqsa, tarjimon-adiblarga katta bir maktab rolini o'ynadi. O'zbek xalqi Tolstoy asarlarini o'z mulkidek sevib ardoqlaydi. Buyuk san'atkor realistning tarjima asarlari o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

UMUMIY XULOSALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovni Samarqand viloyatidagi 2010 yil 12 dekabrda so'zlagan nutqida Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi oliygohlarida faoliyat ko'rsatayotgan hoh u talaba bo'lsin hoh professor-uqituvchi bo'lsin u komp'pyuter texnologiyasini bilishi, internetda erkin ishlay olishi va ingliz tilini bilishi lozimligini alohida o'qitirib o'tdilar.

Badiiy tarjimada uslub masalasi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, uslub va stilistika tug'risida aytilgan yuqoridagi gaplarga ham e'tibor qilishimiz kerak bo'ladi.

Tarjimon biror yozuvchining asarini tarjima etar ekan, uning stilini albatta berishi kerak. Bu adabiy tarjimaning asosiy qoidalaridan biri, tarjimonning ustaligi esa original asarning stilini bera bilishidadir. Agar tarjimon o'sha yozuvchining stilini bermasa, u vaqtda tarjima bo'sh chiqadi va nursiz, rangsiz, qonsiz, chala jonday bo'lib ko'rinadi. eng mohir tarjimonlarning asarlari shuning uchun ham o'lmas asarlar bo'lib qoladiki, ular original asar avtorining ruhi va uslubini bera oladilar. Bu og'ir vazifani bajarish uchun tarjimon har turli yo'llarni axtaradi, o'z qalamini charxlab o'tkirlaydi, natijada mashxur tarjimonga aylanadi. Mashxur yozuvchi, tarjimon, filologiya fanlari doktori Korney Chukovskiy **«Asl nusxaning stilini bera olgan badiiy tarjimagina aniq tarjima bo'la oladi»**,—deb yozgan edi.

Darxaqiqat, muallif stilini berolmagan va uni buzgan tarjima qanotsiz, dumi yulingan cho'loq qushga o'hshaydi. Bu tarjimani tarjima deb ham bo'lmaydi. Uni taxrir qilib, tuzatib chiqish amrimaxol. Yaxshisi ularni qaytadan tarjima qilish kerak.

Bizda asl nusxa uslubini bergan tarjimalar ko'p, mohir tarjimonlar bu og'ir ishni sharaf bilan bajarganlar. Oybek, N. Alimuhamedov, Chulpon, Sanjar Siddiq Xamid Olimjon, Usmon Nosir, Mirzakalon Ismoiliiy, Mirtemir, G'ofur G'ulom, Shayxzoda, Zulfiya, Vaxob Ro'zimatov, Abdulla Qaxxor, Sharif Tolibov, Malik Raxmonov, R. Abduraxmonov, Odil Sharapov, Mirkarim Osim, I. Shamsharov, Askad Muxtor kabi o'tkir tarjimonlar original uslubni berish uchun juda ko'p bosh qotirishgan. Shuning uchun ham ularning tarjimalari yaxshi chiqqan. Fikrimizni isbotlash uchun yuqorida, nomlari zikr qilingan tarjimonlardan Oybek, Abdulla Qaxxor, Mirtemirlarning ba'zi bir tarjimalaridan misollar berish bilan cheklanmoqchimiz.

XIX asr rus klassik adabiyotida o'ziga xos uslub yaratgan ulug' yozuvchilardan biri N. V. Gogol' bo'lib, uning «Ulik jonlar», «Uylanish»,

«Revizor» degan nodir asarlari jahonga mashxur. «Gogolning eng katta xizmati shundaki, deb yozgan edi N. G. Chernishevskiy, -u rus nafis adabiyotiga satirik yoki, yana ham to`g`risi, tanqidiy okimni kiritdi va uni mustahkamladi». N. V. Gogol` xajviy asarlarida unutilmas, yorqin obrazlarni yaratdi, satirik kuroli bilan jamiyatdagi chirkin illatlarni fosh qilib tashlaydi. Gogol` o`z komediyasi haqida shunday deb yozadi: «Men «Revizorov» da Rossiyadagi o`sha vaqtda o`zim bilgan hamma yaramasliklarni, ro`y berib to`rgan hamma adolatsizliklarni bir nuqtaga to`plab ko`rsatishga, bir varakayiga hamma narsa ustidan kulishga karor qildim». Gogolning «Revizor» asari ko`p mamlakatlar sahnalarida qo`yildi va qo`yilib kelmoqda, bu asar O`zbek saxnasida ham qo`yilib, katta muvaffaqiyat qozonib, tomoshabinlarning olqishiga sazovor bo`ldi. Mazkur asarning O`zbek tilida ikkita yaxshi tarjimasi bor, biri Sanjar Siddiq tarjimasi, ikkinchisi, Abdulla Qaxxor qalamiga mansub. Atoqli adib, mohir tarjimon Abdulla Qaxxor juda ko`p asarlarni tarjima qilib, O`zbek tarjima tarixida alohida o`rin egalladi, A. Pushkin, N. Gogol`, L. Tolstoy, M. Gor`kiy asarlarini tarjima qilar ekan, ularnng uslubini saqlab qoldi, asl nusxaning ruhini bera oldi.

O`zbekiston xalq shoirasi Zulfiya 50-yillarning o`rtalarida Nekrasovning «Rus ayollari» asarini tarjima qila boshladi. Bu asarga kirgan ikki poema— «Knyaginya Trubetskaya» bilan «Knyaginya M. N. Volkonskaya» larning tarjimalarini Zulfiya «Sharq yulduzi» jurnalida bostirib chiqardi. O`zbekiston Davlat nashriyoti esa 1956 yilda «Rus ayollari» ni bir qancha ming nusxada nashr etdi. «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» va «Rus ayollari» ning bosilib chiqishi O`zbek adabiyotida katta voqea bo`ldi, keyinchalik bu asarlar bir necha marta qayta-qayta nashr etildi.

1957 yilda O`zbekiston Davlat badiiy adabiyot nashriyoti Nekrasovning «Tanlangan asarlar» ining bir tomligini bosmadan chiqardi. Mazkur to`plamga shoirning bir qancha she`rlari va ikkita poemasi tarjimalari kiritilgan. To`plam shoir Turob To`la tarjima qilgan «Vatan» she`ri bilan boshlanadi. Bundan tashqari Turob To`laning «Maxkama eshigi oldidagi muloxazalar», «Bolalar yigisi», «Qishloqda mexnatning eng og`ir nayti», «Mazay bobo va kuyonlar»

kabi tarjima sheʼrlari, Zulfiyaniig «Rus ayollari» («Knyaginya Trubetskaya» va «Knyaginya M. N. Volkonskaya») poemasi hamda «Yomgʻir oldidan», «Qayda sening qirmizi yuzing», «qaytish», «Qoʻshiq», «Uch elegiya», «Oshiqqa» kabi lirik sheʼrlar tarjimasi, Mirtemirning «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» va «Dexqon bolalari» nomli asarlari tarjimasi, M. Boboevning «Qorongʻi kuchadan tunda utsam jim», «Men ziyorat qildim mozoring», «Oʻquvchi», «Eryomushqaning allasi», «Volgada», «Kalistrat», «Dobrolyubov xotirasi», Ramz Bobojonning «Soldat onasi-Orina», «Temir yul», «General Toptigin», N. Oxundiyning «Shoir va grajdanin», «Urilmagan yer» kabi asarlar tarjimalarini toʻplamga kiritganlar.

Asl nusxa bilan tarjimani solishtirganimizda maʼno toʻgʻri berilgani bilan birga qaxramon harakteri yaxshi koʻrsatilganini aniqladiq Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, «Rusiyada kim yaxshi yashaydi» asari muvaffaqiyatli tarjima etilgan, undagi asosiy obrazlar harakteri, portreti oʻzbekchada ham aynan berilgan, ular asl nusxaga monand, joʻzʻiy kamchiliklari tarjimaning qayta nashrida toʻzatar, degan umiddamiz. Mazkur tarjima yosh tarjimonlar uchun badiiy kullanmadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bizning suyuqli shoir-tarjimonlarimiz ulugʻ shoir N. A. Nekrasovning durdonalarini oʻzbek xalqiga tanitib, rus va oʻzbek adabiy aloqalarini rivojlantirishda va oʻz`aro doʻstlikni yanada mustahkamlashda katta xissalarini qoʻshdilar. Endigi vazifa shoirning koʻp jildli asarlarini toʻla-toʻkis tarjima qilib nashr qildirishdir.

1971 yilda ulugʻ revolyutsioner-demokrat shoir N. A. Nekrasovning tugʻilganiga 150 yil toʻlishi munosabati bilan katta yubiley tantanalari oʻtkazildi. Oʻzbek xalqi Nekrasovni oʻzining shoiri kabi sevib, ardoqlab, uning shonli yubileyini ham oʻz farzandining yubileyi kabi keng koʻlamda nishonladi

Oʻzbek xalqi Pushkin asarlari bilan birinchi marotaba XIX asrning oxirlarida shoirning tugʻilganiga yuz yil toʻlishi munosabati bilan tanishdi, 1899 yilda «Turkiston viloyati gazetida» shoirning tarjimai xoli haqida maqola va

uning she`rlari O'zbek tilida bosilib chiqdi. Yubiley kunlari Pushkin haqida maqolalar, «Shoir», «Shoirga» she`rlari (1899 yil 20, 28 may), «Mazkur pushkin shoir shoirlik xususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar» degan sarlavha ostida uning «Bokcharoy fontani» (1889 yil 3 iyul) kabi asarlarining tarjimalari bosildi. Bo'lardan tashqari, o'sha yil 24 iyulda shoirning «Baliqchi va baliq haqida ertak» nomli asari ham nasriy yul bilan tarjima etilgan. Mazkur asarning she`riy tarjimasi gazetaning 1889 yil 14 avgust sonida bosilgan bo'lib, bu Pushkin asarlarining birinchi tarjimasi edi. «Turkiston viloyati gazetida»da 1899 yilda bosilgan «Aleksandr Sergeevich Pushkin (1799 -1899)» nomli maqolada ulug' rus shoirining ijodiga g'oyat yuksak baxo beradi⁷⁹.

Maqolada A. S. Pushkinning tarjimai xoli va ijodiy faoliyati haqida batafsil ma`lumot beriladi, shundan keyin shoirning she`r va dostonlari, prozaik asarlari boshqa tillarga tarjima etilgani va umuman badiiy tarjimaning ahamiyati haqida alohida to'xtab o'tiladi.

Ulug' shoirning tarjimai holi xaqidagi birinchi katta maqola gazetxonlarda A. S. Pushkinga va uning asarlariga zo'r qiziqish tug'dirdi, xalq ichida katta yig'inlarda shoirning asarlari o'qila boshlandi. O'sha yillari tashkil etilgan «Toshkent xalq o'qishi komissiyasi» shoirning yubiley tantanasini o'tkazish programmasini gazetalarda e`lon qildi.

Turkiston ulkasining boshqa shaxarlarida ham ulug' shoirga bag'ishlab tantanali kechalar o'tkazildi. Yubiley kunlari va undan keyin ham shoirning bir qancha she`rlari, poema va ertaklari tarjima qilinib chop etildi.

A.S. Pushkinning tarjima etilgan birinchi asariga gazetada sarlavxa quyilmasdan «Mazkur Pushkin shoir, shoirlik hususida bul tariqa mazmunlik nazm etibdurlar» deb yozilgan.

Bundan sakson besh yil ilgari «Turkiston viloyati gazetida» da ulug' adibning «Odamlar nima bilan tirik»⁸⁰ degan xikoyasi o'zbek tiliga tarjima etilib bosildi. Shundan so'ng, uning masal va xikoyalari gazeta va xrestomatiyalarda, darslik

⁷⁹ («Туркистон вилояти газети»), 1889 йил 8 май

⁸⁰ («Туркистон вилояти газети»), 1887 йил 10 октябрь,

va to'plamlarda birin-ketin bosilib chiqa boshladi. Inqilobgacha Lev Tolstoyning uttiz turtta xikoya va masallari nashr etildi. Shulardan yigirmatasi masallar bo'lib, ular tubandagilardir: «Taka bilan tulki», «Eshak» («Osel v l vinoy shkure»)², «Bo'ri bilan ayiq», «Ot bilan eshak», «Arslon, eshak ham tulki» (ba'zi terma kitoblarda «Sher, eshak va tulki» deb olingan), «Qarg'a bilan qurbaqa», «Kuyon bilan qurbaqalar», «Zag'cha bilan kabutarlar», «Bo'ri bilan turna», «It» («Sobaka i yee ten »), «Qarg'a bilan uyasi» («Voron i voronyata»), «Bug'u», «Burgut bilan toshbaka» (ba'zi terma kitoblarda «Qora qush bilan toshbaqa» ham deb atalgan), «Ikki do'st » («Dva tovarixa»), «Otasi bilan bolalari», «Mujik va suv podshosi» («Mujik i vodyanoy»), «Podsho va qarchig'ay», «Bir mujikning bodring ug'irlagani» («Mujik i ogurtso'»), «Xizmatkor bilan ot xikoyasi» («Loshadi i konyux»), «Bog'bon» («Sadovnik i so'novya»).

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyo adabiyotining buyuk siymolaridan biri Lev Nikolaevich Tolstoyning katta-katta asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib, adabiy xazinamiz boyidi, xalqimiz Tolstoy durdonalari bilan oshna bo'ldi. Tolstoy asarlari o'zbek yozuvchilariga, Ayniqsa, tarjimon-adiblarga katta bir maktab rolini o'ynadi. O'zbek xalqi Tolstoy asarlarini o'z mulkidek sevib ardoqlaydi. Buyuk san'atkor realistning tarjima asarlari o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

SUMMARY

In this dissertation I've considered the problem of transferring the author's style in translation. As we know, the works of translation are very important in cultural, literary relations among the peoples of the world and they are considered to be the most important resources in developing literature. One of

the most important rules of translation is giving the style of the original by the translation.

Great scientist Belinskiy said: "Style-is a talent, a standing out of an idea and obvious feeling. A style makes a person completely visible it is all the time as much as a personality-and character original.

In fact, we know from the history that each great poet and writer should have his own style of writing. As we learn classic literature we get to know that each famous person such as Firdavsiy, Nizomiy, Navoi, Shota Rustaveli, Shakespeare, Pushkin, Tolstoy, Chehov and others had their own styles. Every ace writer knows that he has to create his individual style, he search for separable features from other writers and tries to find them. Gifted writers are the only writers who can do it.

For instance compare the poems of H. Olimjon and G.Gulom the are not similar, each one has its own features. Or if you compare prosaic works by Oybek and a A.Qahhor you would see the district difference between the writers. Each has his own way of writing different structure similarities more than that the theme images system. Composition of either of them is completely different. So, they have their own style in works belonging to them.

Style has two meanings: style with narrow meaning and with broad meaning. Style on writer's work is narrow meaning method. Wide meaning style contains itself rather big problems, for example, ordinary speech style, newspaper article style, scientific, subject, technical works' style, official and documental style and others. Besides, there are such styles as humoristic, satirical, intimate – inner feelings styles, each of them has some definite features, its own internal structure, term lexicology. Works by Pushkin were translated many times into Uzbek. For instance, All Askar Kalinin translated "Fairy-tale about fish man and golden fish" in a prosaic way. The translator paid a particular attention to the most fragile sides of the original and tried to give complete content of the work.

If we take extract example from any episode of this fairy-tale and compare it write with the original it maintains our point of view mentioned

above. But there are some bookish sentences that create difficulties to the transfer of the style. The translator fixed his attention on the character's language. For a sample in the given work the rude character of an old woman is given. As a noble woman she sent her husband to the stable by slapping him on his face and said "If you compare this translation with the original you will see they are identical:

In general the translation of works by Pushkin shows the richness of the Uzbek language is words and lexics and played a meaningful role in enriching the language.

In the dissertation it's also spoken about the translations of the works by Nekrasov. (*Who lives better in Russia*) was the great work of Nekrasov written in 1863. In the work Nekrasov described seven debtor peasants who sought for happiness and met with a priest or with the man or Russian woman or a landowner or with a lord. This way he vividly described a picture of a time where the happiest people turned out to be the unhappiest one. If we look through the names of the villages.

Poor and unhappy. This work was translated by Mirtemir and he tried to give characters, especially their portraits as in the original. For instance, let's look through the way the portraits of characters were transferred. Seven debtor peasants: Roman, Luka, Demyan, Ivan, Mitrador, Pahom and Prov would argue on "*Who lives better in Russia*". On their way they would see a pope and occupying the road would give him a deep bow. The pope would start and one of the peasants-Luka would make him come down. Here the author described the portrait of Luka and showed his characters.

In the given example you can imagine a bright picture of an alive man. Translator could find resembling colors and points as those of Nekrasov.

Many works of great Russian writer Tolstoy were translated into Uzbek and are read by bibliophiles with great interest. We can give as an example the translations of such fables as "*Two friends*", "*Wolf and bear*", "*Goat and fox*", "*Gardener*", such fairy-tales and stories as "*Wolf and man*", "*Blind man*", "*Fox*

and Heath-cock", "King and man" and so on. The quality of translations incoming into these genre are different, some of them were translated correctly, there was given the content and spirit of the original. But some of them were translated freely, translator shortened them, added something from himself, or introduced a lot of changes. Translations in the fable genre were also translated in different ways. As we know, it's difficult to write a fable because in a little story there should be given rather broad ideas. Not every writer is ever able to compose a fable of a good moral. Thus, there are few fable writers. Tolstoy's fables in many cases are based on the life of common people and are the works where folklore is used.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'Y XATI

1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy –iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston, 2009

2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. – T.: O`zbekiston, 2010
3. Karimov I.A. O`zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilliga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zi, “O`zbekiston ovozi” gazetasi, 2010 yil 1- sentyabr`
4. Karimov I.A. “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo`lini izchil davom – taraqqiyotimizning muhim omilidir”, “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8 dekabar`
5. Karimov I.A. “Barcha reja va das turlarimiz vatanimiz taraqqi yotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”, “Xalq so`zi” gazetasi, 2011 yil 22 yanvar`
6. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch” “Ma`naviyat” Toshkent 2009
7. Karimov I.A “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”/ “Muloqot” 1998 yil 5-son
8. Abu Nasr Farofiy “Fozil odamlar shahri” T, 1993
9. Boboeva A. Gazeta stili xaqida. Toshkyont. Fan, 1983 yil.
- 10.Mamajonov S. Fitrat. "Ma'naviyat yulduzlari" to'plami.T.: "Abdulla Qodiriy", 2001
- 11.Nurmonov A. “O`zbek tilshunosligi tarixi” T, 2002.
- 12.Nurmonov A. a boshqalar. O`zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, 1972
- 13.Nurmonov A. Lisoniy belgi xususiyatlari haqida. Andijon, 1992 yil
- 14.Navoiy Asarlar. 14-tom. Toshkent, 1967 yil,
- 15.Shoabdurahmonov Sh va boshq. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 1980 yil.
- 16.Mirzaev M.va boshq. O`zbek tili. Toshkent, 1972
- 17.Hojiev A.. O`zbek tili sinonimlarining izohli lug`ati. T., 1974
- 18.Rustamov A. So`z xususida so`z. Toshkent, 1987 yil.

19. Timofeev L., Vengerov N. Kratkiy slovar literaturavedcheskix terminov M.: 1955
20. Qilichov U.E. Uzbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent. Ukituvchi, 1985 yil.
21. YUsof Xos Hojib. Qutadg' u bilik. Toshkent, 1990 yil,
22. Ozod SHarafiddinov "Ijodni anglash baxti" Toshkent-2007
23. Xayrulla Ismatullaev "CHolpon va jaxon". Jaxon Adabiyoti. 1998
24. Qudrat Musaev. Tarjima nazariyasi. Toshkent-2005
25. Rustamov A. So`z xususida so`z. Toshkent, 1987 yil.
26. Timofeev L., Vengerov N. Kratkiy slovar literaturavedcheskix terminov M.: 1955 S.107.
27. R. Salomov. Adabiy an`ana va badiiy tarjima. Toshkent, 1980
28. R. Salomov. Til mu`jizalari haqida, 1961
29. R. Salomov. Til va tarjima. Toshkent, 1966
30. R. Salomov. Rus tilidan o`zbekchaga makol, matal va idiomalarni tarjima qilish masalasiga doyr. Toshkent, 1961
31. R. Salomov, N. Otajonov. Jaxongashta Boburnoma. Toshkent, 1966
32. «Masterstvo perevoda», M., 1959, 1963
33. J. Sharipov. O`zbekistonda tarjima tarixidan. Toshkent, «Fan», 1965
34. M. Rasuliy. V. Mayakovskiy asarlari o`zbek tilida. Toshkent, 1961
35. N. Vladimirova. Nekotoro`e voproso` xudojestvennogo perevoda s russkogo na o`zbekskiy yazo`q Toshkent, 1957
36. N. A. Nekrasov. Rusiyada kim yaxshi yashaydi. Toshkent, 1953
37. A. S. PUSHKIN. Tanlangan asarlar, Toshkent, 1955
38. G. Rafurova. Nekrasov o`zbek tilida. Toshkent, 1971
39. S. Salomova. Rus ayollari, 1971
40. E. Shermatov. N. A. Nekrasov o`zbek tilida. Toshkent, 1971
41. Nekrasov N. A. Rus ayollari, Toshkent, 1956
42. Fedorov A. V. Vvedenie v teoriyu perevoda. M., 1958
43. A. Abdugafurov, Rasuliy M. Tolstoy asarlari o`zbek tilida, 1962

44. Aznaurova E. S. Original va tarjima, Toshkent, 1962
45. Vladimirova N. V. Badiiy asar tarjimasida milliy hususiyatni saqlash masalasi, Toshkent, 1957
46. Tarjima san`ati (Ham ma nusxalari)

INTERNET MANBALAR

47. [http: www.Google .co.uz](http://www.Google.co.uz) Literature
48. [http: www.Google.com](http://www.Google.com) analysys of Jadids...
49. [http:www.wikipedia.com`index.php?...](http://www.wikipedia.com`index.php?...)
50. [http: www.method.novgorod.rcde.ru`getblob.asp?idq5000...](http://www.method.novgorod.rcde.ru`getblob.asp?idq5000...)
51. [http: www.rspu.edu.ru`university`chair`eng.html.](http://www.rspu.edu.ru`university`chair`eng.html)
52. [http: www.teacher.fio.ru`news.phpnq27&ccq79.](http://www.teacher.fio.ru`news.phpnq27&ccq79)
53. [http:`www.liceyangl.ipkam.ru`index.html.](http:`www.liceyangl.ipkam.ru`index.html)
54. [http:www.eurasianet.org](http://www.eurasianet.org)